



Alan Aleksandr
Miln

Vinni Pux va uning sarguzashtlari




YANGI ASR AVLODI
TOSHKENT
2016

UO'K: 821.512.133-3

KBK: 84(4Ing)

M – 50

Miln, Alan Aleksandr

Vinni Pux va uning sarguzashtlari: birinchi qism. Alan Aleksandr Miln / Ingliz tilidan Zilola Jalolova tarjimasi. – Toshkent: Yangi asr avlod, 2016. – 112 b.

ISBN 978-9943-27-702-1

Jahon adabiyotida bolalar uchun yozilgan kitoblar orasida Alan Aleksandr Miln ijodi, qahramonlari yosh kitobxonlarimiz qalbiga shu qadar yaqinki, u haqda eshitganda, ko'rganda hayajonlarini, quvonchlarini yashirolmaydilar.

«Vinni Pux va uning sarguzashtlari» nomli mo'jazgina kitobchani biz ilk bora o'zbek tilida yosh kitobxon do'stlarimiz e'tiboriga havola qilmoqdamiz.

Ularning sevimli qahramonlari – Vinni Puxning sarguzashtlari chindan-da maroqli, chindan-da hayratlanarli.

Bola qalbimizni to'lqinlantiradigan asar mutolaasiga shoshilamiz.

UO'K: 821.512.133-3

KBK: 84(4Ingl)

Ingliz tilidan
ZILOLA JALOLOVA
tarjimasi

ISBN 978-9943-27-702-1

© Alan Aleksandr Miln, «Vinni Pux va uning sarguzashtlari». «Yangi asr avlod», 2016-yil.

MUQADDIMA

 garda Kristofer Robin haqida boshqa bir kitobni o'qigan bo'sangiz, esingizdan chiqmasin, unda oqqush bor edi (yoki oqqushda Kristofer Robinmi, qaysilagini bilmadim lekin). Bolakay Kristofer Robin oqqushini Momiqvoy deb atagan. Bu ancha vaqt ilgari edi, u bilan xayrplashganimizda shu nomni saqlab qoldik va oqqushga endi bu nom kerakmas. Shunday qilib, Edvard Ayiq o'ziga ajoyib ism qo'yilishi kerakligini aytganida, darrov unga Vinni Pux nomini berdik. Demak, Momiqvoy haqidagi bobni tushuntirar ekanmiz, keyingilarini ham hozir gapirib o'tamiz.

Londonga borib, u yerdagi Hayvonot bog'ida bo'lganmisiz. Ba'zi kishilar Hayvonot bog'ini «Kirish»dan boshlab, har bir qafas yonidan imkon qadar tez o'tib, «Chiqish» degan so'z yozilgan yerga yetib kelishadi. Ammo aqli odamlar o'zlarini yaxshi ko'rgan jonivorning yoniga borib, o'sha yerda uzoq vaqt turadilar. Kristofer Robin Hayvonot bog'iga kirganida, u birinchi bo'lib Qutb Ayig'ining yoniga bordi. Bolakay chap tarafidagi uchinchi kuzatuvchiga nimadir deb pichirladi va eshik yopildi. Biz qorong'i yo'lak hamda zinalardan hayron qoldik, keyin maxsus qafasni ko'rdik. Qafas ochilgach, uning ichidan jigarrang pahmoq ayiq chiqib keldi. Kristofer Robin «Voy, Ayiq!» deb

qichqirib yuborgach, qo'lini qimirlatib so'rashdi. Xo'sh, bu ayiqning ismi Momiqvoy Vinni, ya'ni Vinni Pux deb o'qiladi. Xullas, qaysi biri birinchiligini bilmadik, esimizdan chiqdi chog'i...

Men bu hikoyani uzoq yozdim, Puchuqvoy esa buni ko'rib «Men haqimda-chi?» – dedi ingichka ovozda. «Azizim Puchuqvoy, axir kitob faqat sen haqingda» deb qo'ydim. «Bilaman, bu Momiqvoy to'g'risidagi kitob», – dedi yana chiyillab. Bu tushunarli, u qizg'anyapti, chunki Momiqvoy o'zi haqidha katta muqaddimaga egalik qilmoqda. Momiqvoy eng sevimli, albatta, buni inkor etib bo'lmaydi. Ammo Puchuqvoy Momiqvoy uddasidan chiqmagan narsalarni yaxshigina eplaydi. Masalan, siz, hech kimga bildirmay Momiqvoy bilan maktabga borolmaysiz. Puchuqvoy esa mittigina bo'lgani uchun cho'ntakka bilintirmay kirvoladi.

Ba'zan u siyohdonning ichiga tushib, ko'rinishini ozgina o'zgartiradi va bu bilan u Momiqvoyga nisbatan anchagina bilimga egaday ko'rinaldi, lekin Momiqvoyga farqi yo'q. U esa ayrimlarning aqli bor, ayrimlarda aksincha, deb qo'ya qoladi.

Endi boshqalar ham «Biz-chi?» deyishmoqda, keling, yaxshisi, Muqaddima yozishni bas qilib, kitob varaqlashga tusha qolay.

A.A.MILN

BIRINCHI BOB

VINNI PUX VA ASALARILAR HAQIDA

Mana, ayiqcha Edvard «dup, dup» etib, Kristofer Robin ortidan boshini egib, zinadan pastga tushyapti. Bundan boshqa yo'lni hozircha u bilmaydi. Ammo ba'zida dupillashdan to'xtab, bir zum o'yga tolganda, unga boshqacha usuli ham borday tuyuladi. Keyin esa balki unday emasdir, deb o'ylaydi. Nima bo'lganda ham, u tushib oldi va endi o'zini tanishtirishga tayyor. Tanishing, Vinni Pux!

Ilk bor uning ismini eshitganimda, men ham siz aytmoq-chi bo'lgan gapni aytganman: «Lekin uni bolakay deb o'yladim?»

- Men ham, – dedi Kristofer Robin.
- Unda uni Vinni deya olmaysan.
- Demadim.
- Biroq sen aytdingki...
- U Vinni Pux, nima, eshitmadingizmi?
- E-ha, endi bildim, – dedim darrov. Menimcha, siz ham barcha izohlarni bilib olishingiz kerak, axir.

Ba'zi paytlarda zinadan tushayotib, Vinni Pux o'ynashni yoqtiradi, goho olov yonida jimgina o'tirib, hikoya eshitishni xush ko'radi. Mana shunday kechalarining birida...

- Ertak aytib bermoqchimisiz? – so'radi Kristofer Robin.
- Qanday ertak? – dedim men.

– Vinni Puxga ertak aytib bera olasizmi? Juda eshitgisi kelyapti!

– Menimcha, qo'limdan keladi. Qanday ertaklarni yaxshi ko'radi o'zi? – so'radim men.

– O'zi haqidagisini. Chunki u ham ayiqchamizga o'xshaydi.

– Ha-ya.

– Eng yaxshisini ayta olasizmi?

– Harakat qilaman.

Shunday qilib, boshladim.

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, qadim-qadim zamonda emas, taxminan o'tgan juma kuni Vinni Pux o'rmonda yolg'iz o'zi Sanders nomi ostida yashardi.

(– «Nomi ostida» degani nima ma'noni bildiradi? – so'radi Kristofer Robin darrov.

– Bu eshidiga tilla harflar bilan yozilgan ism va shu yerda yashaydi, deganidir.

– Vinni Pux unday emas, – dedi Kristofer Robin.

– Endi shunaqaman, – dedi Vinni past ovozda.

– Davom etamiz, – dedim men.)

Bir kuni u sayr qilayotib, o'rmon o'rtasidagi ochiq joyga kelib qoldi. Bu yerda katta eman daraxti bor edi. Daraxtning tepasida vizillagan tvushlar eshitildi.

Vinni Pux daraxt tagiga o'tirdi, boshini panjasibilan ushlab, o'ylay boshladi. Avvalo u o'ziga o'zi shunday dedi: «Vizillayotgan narsa nima ekan-a? Siz bunday vizillolmaysiz, vizillash uchun esa nimadir sabab bo'lishi kerak. Vizillab, shovqin solayotgan ekansiz, demak, siz asalarisiz».

Keyin u yana uzoq muddat o'ylab, dedi: «Asalari bo'lishning yagona sababi, menimcha, asal tayyorlash».

So'ngra u o'rnidan turib: «Asal tayyorlashning yagona sababi shuki, men uni yeishim mumkin», deya daraxtga tirmashib chiqa boshladi.

Daraxtga tirmasha chiqarkan, o'ziga o'zi qo'shiq kuyladi:

*Ayiq asal yaladi,
Shirinligin biladi.
Doim hayron qolaman,
Nega shunday qiladi?*

Keyin bu shoxdan u shoxga o'tdi. Shu tobda boshqa bir ashulani ham o'ylab qo'ydi.

*Juda qiziq holat-ku,
Ayiq bolari bo'lsa.
Jajjigina inini
Daraxt ustiga solsa.*



*Asalari ayiqqa
Qolganda-chi aylanib.
Qanday qilib tushardi,
Zinalardan aylanib?*

Ayiq biroz charchagani bois ovozi xirillab chiqdi. U deyarli ko'zlangan manzilda edi, aynan o'sha shoxda turardi...

Qars!

– Voy, yordam bering! – dedi Vinni Pux o'zidan o'n qadam pastdagi shoxga qulab.

– Qaydanam chiqdim... – deb u yigirma qadam pastdagi shoxga sakradi.

– Nima qilmoqchi bo'lganimni ko'rdingmi? – dedi va qarsillab o'ttiz qadam pastdagi boshqa shoxga tushib ketdi. – Men shuni aytgandim.

– Yo'q, bundan battari bo'lmaydi, – deya e'tiroz bildirmadi va keyingi oltita shoxdan sirpanib tushdi.

– Menimcha, tugadi shekilli, – dedi o'zicha so'nggi shox bilan xayrlasharkan, uch marta aylanib, butazorga ohista tushdi. – Hammasi asalni juda ham yaxshi ko'rganimdan bo'ldi. Voy, jonim!

U butazordan emaklab chiqib, burnidan tikonlarni olib tashlagandan so'ng o'yga toldi. Xayoliga birinchi bo'lib kelgan inson Kristofer Robin edi.

(– Menmi? – dedi Kristofer Robin qo'rquv aralash kuchli jasurlik bilan bunga ishonishga harakat qilib.

– Ha, sen.

Kristofer Robin lom-mim demadi, ammo ko'zlari kattalashib, yuzi hayajonga to'lib borardi.)

Shunday qilib, Vinni Pux do'sti Kristofer Robin tomon yurdi. Do'sti o'rmonning narigi tomonidagi yashil eshikli uyda yashardi.

– Xayrli tong, Kristofer Robin, – dedi u.

– Xayrli tong, Vinni Pux, – so'rashding sen ham.

– Senda mabodo pufak yo'qmi?

– Pufak?

– Kelayotib o'ylab qoldim: «Kristofer Robinda pufak bormikan?», deb. Shunchaki qiziqdimalda.

– Pufakni nima qilasan?

Vinni Pux hech kim eshitmayaptimikan degandek atrofga qaradi. So'ng panjalarini og'ziga karnay qilib, shivirladi: «Asal!»

– Bir qo'lda pufak, bir qo'lda asal? Buni eplash mushkul...

– Asal olaman, – dedi Vinni.



O'tgan kuni do'sting Puchuqvoyning uyidagi ziyofatda senda pufaklar bor edi. Seniki yashil rangli edi, Shalpanquloqning qarindoshida esa katta ko'k rangli pufak bor edi. Ammo u hali kichkinligi sababli, uni mehmondorchilikka olib kelishmagandi. Shu sababli sen yashil hamda ko'k rangli pufakni o'zing bilan uyga olib kelgandding.

– Senga qanaqa ranglisi kerak? – deya so'radning Vinnidan.

Vinni boshini panjalari orasiga qo'yib, rosa o'ylandi.

– Agar asal olishni istasang, birinchi navbatda bolarilar seni payqab qolmasligi lozim. Pufak yashil rangda bo'lsa, ular daraxtning bir qismi deb o'ylashadi. Ko'k rangli bo'lsa, osmonga o'xshaydi, shunda asalarilar payqamaydilar. Lekin qaysi birini olsam ekan?


– Ular seni pufak bilan payqamaydi, deb o'ylaysanmi?

– Balki, – dedi Vinni. – Asalarilar bilan gaplashib bo'lmasa. – U biroz o'ylanib: – Men kichkina bulutga o'xshab, ularni aldashga harakat qilaman, – dedi.

– Unday bo'lsa, yaxshisi, ko'k rangli pufakni ola qol, – dedi Kristofer Robin.

Shunday qilib, ikkalangiz ko'k rangli pufakni olib, yo'nga chiqdingiz. Sen har ehtimolga qarshi qurolingni ham ilib olding. Vinni Pux o'zi bilgan joyga borib, qosh qarayib, kech kиргунча o'sha yerda rosa aylandi. So'ngra ular pufakni ishira boshladilar. Pufak kattalasha-kattalasha paqillab yorilay deganda, sen ipni qo'yib yubording. Vinni ipga osilib, bulutlarday suzdi va bolarilarning daraxti ro'parasida to'xtadi.

– Ura! – deb qichqirding sen.
– Zo'rmi? – baqirdi Vinni Pux senga qarab. –
Men nimaga o'xshayapman?
– Sen pufakka osilib olgan ayiqqa o'xshayapsan.
– Yo'q, – deb yubordi Vinni tashvishlanib, –
havorang osmondag'i jajjigini bulutga deya qol-
sang-chi?
– Unchalikmas.
– Mayli, lekin tepadan boshqacha ko'rinyapti.
Boya aytganimdek, asalarilar gapishtni bilmasa.
Buni qarangki, shamol umuman esmadi. Tur-
gan joyida qotib turaverdi. U asalni ko'rardi, hi-
dini sezardi, lekin unga yetolmasdi. Biroz fursat-
dan so'ng pastga qarab, seni chaqirdi.
– Kristofer Robin, – dedi u baland ovozda shi-
virlab.



- Qalaysan!
 - Menimcha, bolarilar nimadandir shubhalanyaptilar!
 - Nimadan?
 - Bilmadim. Ammo nimadir ularning menga ishonmayotganini aytmoqda.
 - Balki ular seni asal qidiryapti, deb o'ylasha-yotgandir?
 - Bo'lishi mumkin. Sen ular bilan biror marta gaplashganmisan?
- Yana oraga picha jimjitlik cho'kdi. So'ngra Vinni Pux seni chaqirdi.
- Kristofer Robin!
 - Ha, labbay?
 - Uyingda soyaboning bormi?
 - Bor shekilli.
 - Uni bu yerga olib kelib, boshingga tutib, har zamonda menga qarashingni va undan keyin «shu kammidi, yomg'ir yog'yaptimi?», deyishingni istayman. Menimcha, shunday qilsang, manavi bolarilarni boplاب aldashimiz mumkin.

Ayni damda, o'zingcha uning ustidan kulmoqchi bo'lding: «Qari tentak!». Biroq buni ovoz chiqarib aytolmaysan, chunki u seni juda yaxshi ko'radi, keyin sen uyga soyaboningni olib kelgani ketding.

– Ha, keldingmi? – dedi Vinni Pux, uning oldiga qaytishing bilanoq. – Men xavotirlana boshlayotgandim. Shuni bildimki, asalarilar hozir aniq shubhalanishyapti.

- Soyabonimni ochaymi? – deding sen.
- Albatta, lekin birpas kutib tur. Biz tajribali bo'lishimiz kerak. Eng asosiysi, Qirolicha asalarini chalg'itish kerak. Pastdan ularning qaysi biri Qirolicha asalariligi ko'rinyaptimi?

– Yo‘q.

– Afsus. Unda soyaboning bilan yurib, «ana xolos, yomg‘ir yog‘yapti shekilli» deysan, men esa xuddi kichkina bulutchaga o‘xshab, Bulutcha qo‘sishg‘ini kuylayman... Qani boshladik!

Shunday qilib, sen daraxt tagida u yoqdan bu yoqqa yurib, yomg‘ir yog‘ishidan hayratlan-ganingda, Vinni Pux o‘scha qo‘sishqni kuyladi:

*Bulut bo‘lish qanday soz,
Samolarda suzasan.
Ko‘k-havorang bo‘lvolib,
Mag‘rurlanib uchasan.*

Asalarilar hamon vizillab, har doimgiday shubhalanib turardilar. Ularning ayrimlari rostdan ham inini tashlab, qo‘sishqni ikkinchi marta kuylaganida «bulut»ning atrofida uchishni bosh-ladi. Keyin bitta asalari «bulut»ning burniga bir daqaqiqacha qo‘nib turdi.

– Kristofer, voy, Robin, – dedi «bulut».

– Nima?

– Hozirgina o‘ylay-o‘ylay shunday fikrga, juda zarur qarorga keldim. Bular haqiqiy asalarilar emas ekan.

– Anavilar-a?

– Beo‘xshov turli asalarilar. Ishonchim komil, ular yaxshi asal tayyorlashmaydi, to‘g‘rimi?

– Rostdanmi?

– Bo‘lmasam-chi? Shunday ekan, men hoziroq pastga tusha qolaman.

– Qanday qilib? – so‘rading sen.

Vinni Pux bu haqda o‘ylab ham ko‘rmagandi. Bordi-yu u ipni qo‘yib yuborsa, «gup» etib pastga

qulaydi. Ammo unga bunday fikrlar yoqmasdi. U uzoq vaqt o'ylab, so'ngra dedi:

– Kristofer Robin, miltig'ing bilan pufakni otishing kerak. Oldingda miltig'ing bormi?

– Borlikka bor-u, lekin bunday qilsam, pufaging yorilib ketadi, – deding sen. Vinni esa:

– Bu ishni qilmasang, men dabdala bo'laman.

So'ng pufakni mo'ljalga olib, ehtiyyotkorlik bilan uni otding.

– Voy! – dedi Vinni Pux.

– Tegdimi? – so'rading sen.

– Ha. Lekin pufak qolib ketdi, – dedi Vinni Pux.

– Kechirasan, – deb sen yana o'q uzding, bu safar pufakni teshding. Undan astagina havo chiqqa boshladni, keyin Vinni Pux pastga tushdi. Ammo pufakning ipidan uzoq vaqt ushlab turgani uchun uning qo'llari qotib qolgandi. Shu boisdan bir haftacha barmoqlari bukilmadi. Vinni Puxning burniga pashsha qo'nganida u pashshani og'zi bilan puflab haydardi. O'ylashimcha, lekin aniq bilmayman, shuning uchun ham uni Vinni Pux deyishsa kerak.

– Hikoya shunday tugadimi? – so'radi Kristofer Robin.

– Bu birinchi bobning yakuni. Hali yana bosh-qalari ham bor.

– Vinni Pux va men haqimdamini?

– Puchuqvoy, Shalpanquloq va albatta, sen haqingda, yodingdan chiqmadimi?

– Eslayman, lekin har eslaganimda unutaman.

– Puchuqvoy va Vinni Pux Filcha ushlamoqchi bo'lishgani esingdamini?

– Ushlay olishmaganmidni?

– Yo'q.

– Vinni Pux buni eplolmadi. Chunki unda aql yo‘q. Men uni ushlay olamanmi?

– Hm, bu ertakda oydinlashadi.

Kristofer Robin boshini qimirlatib qo‘ydi.

– Esladim, – dedi u. – Faqatgina Vinni Pux eplolmaydi. Shuning uchun ham uni hamma yoqtiradi. Bu haqiqiy ertak-ku axir, shunchaki yodga olish emas har holda...

– Ayni men his qilganimday, – dedim men.

Kristofer Robin chuqur xo‘rsinib, ayiqchasini oyog‘idan ko‘tarib oldi. O‘z ortidan Vinni Puxni ergashtirib, eshik tomon asta yurdi. Eshikda u ortiga o‘girilib dedi:

– Cho‘milishimni ko‘rgani kelyapsanmi? Unga o‘q uzganimda, ozor bermadimmikan?

– Zarracha ham.

U boshini qimirlatib kirib ketdi. Birozdan keyin Vinni Pux ham gup, gup, gup etib, uning ortidan zina bo‘ylab tepaga ko‘tarildi.

IKKINCHI BOB

VINNI PUX MEHMONGA BORIB, KOVAKKA TIQILIB QOLGANI HAQIDA

 o'stlariga Vinni Pux nomi bilan tanish bo'lgan ayiqcha Edvard bir kuni o'rmon bo'ylab mag'rurona g'o'ng'illab ketardi. U har kuni tongda oyna qarshisida badantarbiya mashqlarini bajarayotganida bir qur g'o'ng'illab qo'yadi: «la, la, la, la, la, la», so'ng teparoqqa sakrashga chiranadi-yu, «la, la, la, la, la, la, voy, yordam bering!», deb qo'llarini oyoqlariga yetkazishga intiladi. Nonushtadan keyin u toki yodlab olmagunicha o'ziga o'zi takror va takror aytadi. Oxiri yodladi shekilli, mana bunday tarzda kuyladi:

*Tara-tara-tara-ra!
Tram-pam-pam-tararam-pam-pam!
Ting-ting-tiri-ting,
Tram-pam-pam-tiririm-pim-pi!*

Shu tarzda allambalo qo'shig'ini xirgoyi qilib borardi. Vinni Pux xursand holiga o'zicha fikr-lab ketardi, bordi-yu u Vinni Pux emas, aksincha boshqa narsa bo'lganida-chi... Shunday o'ylar bilan u qumloq sohilga kelib qoldi, sohilda esa katta kovak bor ekan.

– Ha-a! – dedi Vinni Pux. (Tram-pam-pam-tiriram-pam-pa!) Agar biror narsa haqida biror

narsa bilishimni hisobga olsak, bu kovak Quyon deganidir. Quyon degani esa jamiyat ma'nosini bildiradi. Jamiyat bor joyda meni mehmon qilish hamda xirgoyimni tinglash imkonи mavjud.

Shunday qilib u egilib, boshini kovakka tigib, baqira boshladи:

– Uyda kimdir bormi?

Kovak ichidan shitirlagan ovoz eshitildi, keyin sukunat cho'kdi.

– Hoy, hech zog' bormi o'zi? – deya Vinni Pux baland ovozda baqirdi.

– Yo'q! – degan ovoz eshitildi, – bunchalik shovqin solma, seni birinchi chaqirganingdayoq eshitganman.

– Jonga tegdi! Kimdir bormi o'zi bu yerda?

– Hech kim yo'q.

Vinni Pux kovakdan boshini chiqarib, biroz o'yлади. U yerda aniq kimdir bor-ov, chunki «hech



kim» degan so'zni aytdi-ku. Keyin Vinni Pux yana boshini kovakka tiqib:

- Salom, Quyon, bu senmisan? – dedi.
- Yo'q, – dedi Quyon bu safar boshqacha ovozda.
- Iye, bu sening ovozing emasmi, Shalpan-qulqoq?
- Unday deb o'ylamayman, bu uning ovoziga o'xshamaydi. O'xhashi mumkin ham emas, – gapirdi Quyon.
- Shunaqa degin! – deb Vinni Pux kovakdan boshini chiqarib oldi-da, o'nga tolib, yana boshini teshikka tiqdi. – Xo'sh, marhamat qilib Quyon qayerdaligini aytsinlar-chi?
- U sodiq do'sti Momiq Ayiqni ko'rgani ketgan.
- Axir u menman-ku! – dedi Ayiq juda hayratda qolib.
- Men deganing nimasi?
- Momiq Ayiq degani.
- Ishonching komilmi? – so'radi Quyon hamon hayron qolib.
- Aniq bilaman, – javob berdi Vinni Pux.
- Hm, yaxshi, unday bo'lsa, ichkariga kir.
- So'ng Vinni Pux kovakdan ichkari sudralib, sudralib, axiyri Quyonning uyiga kirib oldi.
- To'g'ri, – dedi Quyon unga boshdan oyoq nazar solib. – Bu sensan. Seni ko'rganimdan bag'oyat xursandman.
- Kim deb o'ylaganding?
- Endi, unchalik ishonqiramagandim-da. O'zing bilasan, o'rmonda har xil jonzot bor. Shuning uchun ehtiyyotkor bo'lish lozim. Biror narsa yeysanmi?

Vinni Pux hamisha ertalabki soat o'n birda tamaddi qilib olishni yoqtiradi. Shalpanqulqoq

likop va krujkalarni olib, unga qarab: «Asalmi yoki noningga qaymoq surtib yeysanmi?» deganida, u rosa hayajonlanib, «Ikkalasiniyam», deb yubordi. Keyin esa qizganchiqdek ko'rinnmaslik uchun «Non bermasang ham bo'ladi», dedi. Uzoq vaqt og'iz juftlamaganidan keyin, axiyri, o'ziga mamnun xira ovozda g'o'ng'illab, o'rnidan turdi. Panjasni bilan Quyonning yelkasiga mehrli qoqib qo'ydi va ketishi kerakligini aytdi.

- Ketasanmi? – dedi muloyimlik ila Quyon.
- Haligi, – dedi Vinni Pux, – biroz qolishim mumkin agar, agar sen, – deb u omborxona tomon qattiq tikildi.
- Aslida, o'zim ham ketmoqchi bo'lib turgandim, – deb qoldi Quyon.
- Shunaqami, unda xayr.
- Boshqa biror narsa kerak bo'lmasa, yaxshi bor.
- Yana biror narsa bormi? – asta so'radi Vinni Pux.

Quyon idishlarning qopqog'ini ochdi, u yerda hech vaqo yo'qligiga amin bo'lib, «ushoq ham qolmabdi-yu», dedi.

– O'zim ham shunday deb o'ylagandim. Xo'sh, nachora men ketishim zarur, – ta'kidladi Vinni Pux.

So'ngra sudralib kovakdan chiqa boshladi. Avval old panjalarini, keyin orqa panjalarini oldinga surdi. Ozginadan so'ng burni, qulqlari, old panjalari tashqariga chiqdi, sal turib yelkasi ko'rindi. Keyin esa...

- Voy, yordam bering! – deb yubordi Vinni Pux.
- Yaxshisi, orqaga qaytaman. – Obbo! Oldinga qimirlab ko'ray-chi. E-yo'q, boshqa harakatlana olmayman. Yordam bering, voy-dod! – baqirdi Vinni Pux.

Shu tobda Quyon ham sayr qilishga chiqmoq-chi edi, qarshisidagi eshikning to'silganini ko'rib, orqa chiqish eshididan yurdi va Vinni Puxning yoniga aylanib kelib, unga qaradi.

- Salom, tiqilib qoldingmi?
- Yo‘-o‘q, – javob berdi u sovuqqonlik bilan.
- Shunchaki, dam olib, o‘ylanib, o‘zimga o‘zim g‘o‘ng‘illab o‘tiribman.

– Qani, panjangni ber-chi.

Momiqvoy panjasini cho‘zgach, Quyon uni tortdi, tortdi va yana tortdi...

- Voy! Og‘riyapti! – baqirdi Vinni Pux.
- Gap shundaki, sen tiqilib qolgansan.
- Hammasi katta eshik yo‘qligidan bo‘ldi, – dedi Vinni Pux asabiylashib.
- Yo‘q, bunga ko‘p yeganing sabab. Shu paytda aytish noqulaydir, lekin ikkimizdan birimiz bo‘kib qoldik, lekin u shubhasiz men emas. Xo‘s, endi Kristofer Robinni chaqirib kelishim zarur.

Kristofer Robin o‘rmonning narigi tomonida yashaydi. U Quyon bilan birga qaytib kelganida Vinni Puxning tiqilib qolganini ko‘rgach: «Qari tentak», dedi unga jonsarak tikilib. Shu on hamma unga umid bilan qaradi.

- Hozir o‘ylanib qoldim, Shalpanquloq endi old eshididan sira foydalanmasa kerak, – degancha Ayiq burnidan sekin nafas chiqardi.
- Shunaqa shekilli, – dedi Quyon.
- Old eshikdan foydalanish? – dedi Kristofer Robin. – Albatta, u old eshiklaridan yana foydalanadi.
- Yaxshi, – dedi Quyon.
- Bordi-yu seni tashqariga tortib ololmasak, unda ichkariga itaramiz.

Quyon mo'ylovini o'ychan qashlab qo'ygach, o'zicha o'yladi, agar Momiqvoyni ichkariga itarsak u o'sha yerda qolib ketsa, yaxshi. Bahonada har doim Vinni Puxni ko'rib turadi. Ammo birimiz yer ostida, birimiz esa aksincha yer ustida yashashimizga to'g'ri keladi.

– Nima, endi tashqariga chiga olmaymanmi?

– Aytmoqchimanki, yarim yo'lda qolishdan ne hojat.

Kristofer Robin boshini qimirlatib, uning gapini ta'kidladi:

– Endi bir ish bor, yana ozishingni kutishimizga to'g'ri keladi.

– Ozishimga qancha vaqt ketadi? – so'radi Vinni Pux achchig'i kelib.

– Menimcha, bir hafta-yov.

– Ammo bu yerda bir hafta qololmayman!



– Qolasan, qari tentak. Tashqariga chiqishing qiyin ish.

– Biz senga kitob o‘qib beramiz, – dedi Quyon quvonib. – Umid qilamanki, qor yog‘maydi, – qo‘sishimcha qildi u. – Shuni ham ma’lum qilmoqchimanki, qadrdonim, uyimni egallab olisan. Orqa oyoqlaringdan sochiqlar uchun ilgak sifatida foydalansam, qarshi emasmissan? Chunki, nazarimda, ulardan hozir foyda yo‘q, agar sochiqlarni ilib qo‘ysam, juda qulay bo‘ldi.

– Bir hafta! – xomush tortdi Vinni Pux. – Ovqat-chi?

– Tez ozish uchun hech narsa yemaysan. Lekin biz senga kitob o‘qib turamiz.

Ayiq xo‘rsinib qo‘ygach, qattiq tiqilib qolganiga yana bir karra ishonch hosil qildi. Ko‘z yoshlari pastga toma boshlab, dedi:

– Katta kovakka tiqilib qolgan Ayiqni tinchlan-tirib, unga dalda beradigan kitobni o‘qiysanmi?

Shunday qilib bir hafta tashqi tarafda Kristofer Robin Vinni Pux uchun kitob o‘qibdi, ichkari tomonda esa Quyon choyshablarini ilibdi. Qarabsizki, Ayiq o‘zini ingichkalashib borayotganday his etibdi. Hafta oxirida Kristofer Robin:

– Bo‘ldi! – dedi.

Keyin Kristofer Robin Vinni Puxning old pan-jalarini ushladi, Quyon, uning barcha do‘stlari va qarindoshlari Robinning qo‘lidan ushlab, birgashib tortishdi.

Ancha vaqt dan so‘ng Vinni Pux «Voy!» dedi.

Va yana «Voy!»

Keyin to‘satdan u misli shisha tiqinidek «Poq» deb ovoz chiqarib yubordi.

Shundan so'ng Kristofer Robin, Quyon va uning do'stlari, qarindoshlari uchib tushishdi. Vinni Pux ularning ustiga quladi.

Shunday qilib Vinni Pux do'stlariga rahmat aytib, o'zidan mag'rurlanib, g'o'ng'illab, o'rmon bo'ylab yo'lida davom etdi. Biroq Kristofer Robin uni mehr bilan kuzatib: «Qari tentak!», deb qo'ydi.

UCHINCHI BOB

VINNI PUX VA PUCHUQVOY OVGA CHIQIB, OLABO'JINI TUTMOQCHI BO'LGANI HAQIDA

Puchuqvoy katta qora qayin daraxtining o'rtasida joylashgan uyda yashardi. Qora qayin daraxti o'rmonning o'rtasida edi va Puchuqvoy o'sha uyning o'rtasida istiqomat qilardi. Uyning yonida singan taxta bo'lagi bo'lib, unga «O'zboshimcha V» deb yozilgandi. Kristofer Robin Puchuqvoydan bu nima degani deb so'raganida u: «Bu bobomning ismi», deya javob qaytardi. Kristofer Robin «Seni ham O'zboshimcha V, deb chaqiramizmi?» deb so'raganida «ha», dedi Puchuqvoy, sen ham. Chunki uning bobosi O'zboshimcha Vilyamning qisqargan shakli O'zboshimcha Vill ismiidan olingan. Bobosining ikkita ismi bor edi, bular: O'zboshimcha amaki va O'zboshimcha Vilyam.

– Menda ham ikkita ism bor, – dedi Kristofer Robin dangalligi tutib.

– Ana ko'rdingmi, – qolishmadi undan Puchuqvoy.

Bir kuni qishning bahovo kunida Puchuqvoy uyining yonida qor kurayotganida Vinni Puxni ko'rib qoldi. Vinni Pux gir-gir aylanardi va yana nimanidir o'ylayotgandi. Puchuqvoy uni chaqirganida ham ishidan to'xtamadi.

– Salom! Nima qilyapsan? – so‘radi Puchuq-voy.

– Ovlayapman, – javob berdi Vinni Pux.

– Nimani?

– Bir nimaning izini, – dedi Vinni Pux rosa sirli bo‘lib.

– Nimaning izini? – so‘radi Puchuqvoy yaqin-roq kelib.

– Hozirgina o‘zimdan aynan shuni so‘ramoq-chi bo‘lib turgandim, bu nima?

– Xo‘s, javobing qanday?

– Uni tutib olgunimcha kutishim kerak, – dedi Vinni Pux. – Mana bu yerga qara. – U oldidagi yerni ko‘rsatdi. – Nimani ko‘ryapsan?

– Izlarni, – dedi Puchuqvoy. – Panja izlari, – dedi u hayajonlanib, ozgina chiyillagan ovozda.

– Voy, Vinni, bu Olabo‘jining izlari, deb o‘ylaysanmi?

– Balki. Gohida uning iziga o‘xshaydi, gohi esa yo‘q. Izga qarab aniqlab bo‘larkanmi?

Shu bir nechta so‘zlarni aytib, u izlarning iziga tushdi. Puchuqvoy Puxga bir-ikki daqiqa qarab, uning ortidan chopdi. Vinni to‘satdan to‘xtab qoldi va izlar chalkashgan yo‘lga boqdi.

– Nima bo‘ldi? – so‘radi Puchuqvoy.

– Qara, bu yerda ikkita hayvon yurgan ko‘rinadi. Manavi nima bo‘lganda ham, boshqasiga qo‘silgan, ular ikkisi ham bir jamoa bo‘lib olgan. Men bilan borolasanmi, Puchuqvoy, ular yirtqich hayvonlarga aylanib olishsa-chi yana?

Puchuqvoy quloglarini ikki tomonga qimirlatib, jumagacha yumushi yo‘qligini, agar u haqiqatdan ham Olabo‘ji bo‘lsa, unga ham-rohlik qilishini aytdi.

– Aytmoqchisanki, bu ikkita Olabo‘jimi? – dedi Vinni Pux. Puchuqvoy baribir jumagacha qilar ishi yo‘qligini ta’kidladi. Shu tariqa ular birga yo‘lga tushishdi.

Yo‘lda tilog‘och¹ daraxtli kichkina o‘rmon-ga duch kelishdi. Bu ikkita Olabo‘ji borligidan darak berardi go‘yo, agar shunday ekan, ular qayerda, daraxtzordan aylanib o‘tishgan; daraxtzorni Vinni Pux, keyin Puchuqvoy aylanib o‘tdi; Puchuqvoy bobosi O‘zboshimcha V haqidagi gapirib, vaqt o‘tkazdi. Bobosi O‘zboshimcha V nafas qisishi kasalligi bilan qanday og‘rigani haqida va boshqa qiziqarli narsalarni so‘zlab berdi. Vinni Pux bobosi nimaga o‘xshashidan hayratlandi, balki uning ikkita bobosi bordir, u ikkisidan birini uyiga olib ketib, saqlab qo‘yadi, qani o‘shanda Kristofer Robin nima derkan.

Ularning qarshisida hamon izlar kelardi.

Kutilmaganda Vinni Pux ro‘parasida bir narsani sezib qoldi-da «Qara!», dedi to‘lqinlanib.

– Nima? – deb Puchuqvoy bir sakrab tushib, hech nimadan qo‘rqmay, xuddi badantarbiya mashg‘ulotini bajarganday tepaga-pastga bir-ikki marotaba sakradi.

– Izlar! Ularga uchinchi hayvon ham qo‘sildi! – dedi Vinni Pux.

– Yana bitta Olabo‘ji deb o‘ylayapsanmi?

– Yo‘q, ular boshqacha izlar. Balki ikkita Olabo‘ji va bitta bo‘jimi yoki ikkitami, agar shunday bo‘lsa, u Olabo‘jidir. Kel, ularni kuzatishda davom etamiz.

Ular jinday xavotirlanib yura boshladilar, nima bo‘lganda ham ro‘parasida uchta yovuz

¹ Tilog‘och – ignabargilarga mansub daraxt.

jonzot bor edi. Puchuqvoy ularning o‘rnida bobosi bo‘lishini istardi, Vinni Pux esa kutilmaganda Kristofer Robinni uchratib qolishlarini xohladi. Chunki u Kristofer Robinni juda yaxshi ko‘rardi. Shu payt Vinni Pux burnining uchini tili bilan sovuqqonlik ila yaladi. U biroz hayajonlanar, hali hayotida bunday holga tushmagandi.

– Ko‘rdingmi, Puchuqvoy? Izlarga qara! Ularning qarshisida to‘rtta jonivor izi turgandi! Olabo‘jilar uchta edi. Boshqa Olabo‘ji ularga qo‘sildi!

Xo‘s, uning so‘zi rostga o‘xshaydi. Bu izlar bir-birining ustidan kesishib o‘tgandi, bir-birlari bilan mana shu yerda pala-partish harakatlanishgan, biroq to‘rtta panjaning bosgan izi bora-bora aniq tushgan.

– Menimcha, – dedi Puchuqvoy ham burnining uchini yalab, – menimcha, hozirgina bir



nimani esladim. Kecha qilmoqchi bo'lgan ishimni, hatto ertaga bajarishimga unchalik ishonmagandim. Shunday ekan, hozir aniq ishonch bilan aytamanki, ortimga qaytib, o'sha ishni do'ndirishim lozim.

– Bo'pti, ishingni tushlik payti qil, men sen bilan birga ketaman, – dedi Vinni Pux tezda.

– U tushlikda qilinadigan ish emas, – dedi Puchuqvoy darrov. – U tongda bajariladigan alohida ish, albatta, ertalab bajarish shart. Soat nechchida deyotganding?

– O'n ikki, – dedi Vinni Pux quyoshga boqib.

– Soat o'n ikki va o'n ikki-yu beshning o'rta-sida. Demak, rostini aytsam, qadrdonim qari Vinni Pux, agar ma'zur tutsang... Voy-dod, nima edi u?

Vinni Pux osmonga qaradi, so'ngra hushtak ovozini eshitdi. Katta eman daraxtining shoxlariga nazar solganda, do'stini ko'rib qoldi.

– Bu Kristofer Robin-ku, – dedi u.

– Eh, ana endi ahvoling tang bo'lmaydi, – chiyilladi Puchuqvoy. – Kristofer Robin bilan xavf-xatardan xolisan. Xayr, – deb u shosha-pisha uyiga oshiqdi, xatarga duchor bo'lmagandan mamnun edi.

Kirstofer Robin daraxtdan pastga tushdi.

– Qari tentak, nima qilayotganding? Birinchi daraxtzor atrofida ikki marta yurding, keyin Puchuqvoy seni izingdan yurdi, so'ng ikkalangiz ham birgalashib yana yurdingiz, yana to'rtinchi marta yurdinglar.

– Bir daqiqa to'xta-chi, – dedi Vinni Pux pанjalarini ushlab.

U yerga o'tirib, o'ylay boshladi. Panjasini izlarning biriga qo'yib ko'rdi, so'ng ikki marotaba burnini timdalab, o'rnidan turdi.

– To'g'ri, endi ko'rdim. Go'l va sodda ekanman. Mening mutlaqo aqlim yo'q, – qo'shimcha qildi u.

– Sen butun olamdagi eng yaxshi ayiqsan, – dedi Kristofer Robin uni ovutib.

– Men-a? – deb yubordi Vinni Pux va nogoh yuziga tabassum yugurdi.

– Nima bo'lganda ham, tushlik vaqtি kelib qoldi, – dedi u.

Keyin tushlik qilish uchun uyiga ketdi.

TO'RTINCHI BOB

XO'TIKVOY DUMINI YO'QOTIB QO'YGANI, VINNI PUX UNI TOPIB BERGANI HAQIDA

ari kulrang eshak – Xo'tikvoy o'rmonning qushqo'nmas¹ o'sgan burchagida yolg'iz o'zi old oyoqlarini cho'zgancha, boshini bir yonga egib, nimalarnidir o'ylab turibdi. Ba'zida u o'ziga o'zi so'ylaydi, «Nega?» goho «Nima sababdan?» yana ba'zan esa «Modomiki...» deb. Gohida esa nima haqida o'layotganini bilmaydi.

Vinni Pux og'ir qadamlar bilan lapanglab kelib qolganida Xo'tikvoy o'ylashdan biroz to'xtab, xursand bo'ldi. Lekin «Yaxshimisan?» degancha yana xomush tortdi.

- O'zing qalaysan? – dedi Vinni Pux.
- Xo'tikvoy boshini u yon bu yon siltab qo'ydi.
- Bilmasam. Anchadan beri o'zimni qanday his qilayotganimni bilmayapman.
- Obbo, qadrdonim-ey, buning uchun afsus-daman, – dedi Vinni Pux. – Qani, bir ko'ray-chi?
- Shunday qilib, Xo'tikvoy xafa bo'lib, yerga tikilib turdi, Vinni Pux esa uning atrofida bir marta aylanib chiqdi.
- Dumingga nima qildi? – dedi u hayron qolib.
- Nima bo'libdi? – so'radi Xo'tikvoy.
- U yo'q-ku!
- Aniqmi?

¹ Qushqo'nmas – tikanli yovvoyi o'simlik

– Dum joyidami-yo‘qmi, bu borada adashmaslik kerak. Lekin sening duming joyidamas!

– Xo‘sish, keyin nima?

– Hech nima.

– Bir ko‘raylik-chi, – deb Xo‘tikvoy sekingina aylana bo‘lib, dumi o‘sib chiqqan joyga qaradi – dumini topolmadi. Yurgan yo‘liga o‘girilib, boshini quyi egib, oldingi oyoqlarining orasiga termulib, axiyri chuqur xo‘rsinib dedi:

– To‘g‘ri aytyapsan.


– Shubhasiz, rost gapirdim, – dedi Vinni Pux.

– Bu yaxshi, – dedi Xo‘tikvoy qovog‘ini solib. – Ajablanarli joyi yo‘q.

– Biror yerda tushirib qoldirgandirsan? – so‘radi Vinni Pux.

– Kimdir olgandir, – dedi Xo‘tikvoy. – Ularga o‘xshaymanmi? – qo‘sishimcha qildi u uzoq vaqt jimlikdan so‘ng.

Vinni Pux shu tobda uning ko‘nglini ko‘taradigan biror so‘z aytmoqchi bo‘ldi-yu, ammo nima



deyishni bilmadi. Biroq buning o‘rniga unga yordam berishga ahd qildi.

– Xo‘tikvoy, – dedi u tantanavor ohangda, – men, kimsan Vinni Pux, dumingni topib bera-man.

– Rahmat, Vinni Pux, sen haqiqiy do‘stsan, boshqalarga o‘xshamaysan, – dedi Xo‘tikvoy.

Shunday qilib, Vinni Pux Xo‘tikvoyning dumini qidirib ketdi.

U yo‘lga tushganida o‘rmonda bahorning xushhavo tongi hukmron edi. Jajji bulutlar moviy osmonda baxtiyor o‘ynab, vaqt o‘tgani sayin quyosh atrofida sakrab, misli uni olgani kelganday bo‘lardilar. Keyin esa sirpanib yo‘q bo‘lishar, o‘rniga yana boshqa bulut harakat qilardi. Ularning ichida quyosh jasurona charaqlaydi. Kichkina daraxtzordagi oqqarag‘ay yil davomida qari va ko‘rimsiz tuyulgan bo‘lsa, yangi qora qayin aksincha juda ko‘rkamlashgan. O‘rmonchaning o‘rtasida Ayiq mardona borar, qoyadan pastlab, archagul, so‘ng ariq bo‘ylaridagi toshlar ustidan, qumlikning tik qoyasidan o‘tib, yana archagulga keldi. Axiyri charchab, qorni ochib, katta o‘rmonga yetdi. Bu katta o‘rmonda Ukki yashardi.

– Agar kimdir nimadir haqida nimadir bilsa, – dedi o‘ziga o‘zi Ayiq, – bir nima haqida bir nima biluvchi jonzot Ukki bo‘ladi yoki Vinni Pux otimni boshqa qo‘yaman, – deb qo‘srimcha qildi. – Demak, sen shu yerdasan.

Ukki ulkan kashtan daraxtidagi qasrda yashardi. Uning uyi oddiy emas, balki haqiqiy qasrday tuyuldi Ayiqqa. Harqalay bunday deb o‘ylashiga

eshikdagi qo'ng'iroq tugmasi hamda ipli qo'ng'i-roqcha sabab edi. Qo'ng'iroqqa

«Sovol bo'sa, jingirakni bosing»

deb yozilgandi. Ipli qo'ng'iroqqa esa:

«Sovol bo'masa, taqillating»

deb yozilgan edi.

Yozuvlarni Kristofer Robin yozgandi. O'rmon-da yoza oladigan yagona odam u edi, ammo juda ko'p xato qilardi. Ukki so'zini esa «Ukku» deb talafluz etardi.

Vinni Pux so'zlarni juda ehtiyyotkorlik bilan o'qidi, avval chapdan o'ngga, keyin teskarisi, natijada bittasini tushirib qoldirdi. Ishonch hosil qilish umidida qo'ng'iroq tugmasini bosdi va taqillatdi, juda baland ovozda baqirdi:

– Janob Ukki! Menda savol bor! Men Ayiqman.
Eshik ochilib, Ukki tashqariga qaradi.
– Salom, Vinni, qalaysan? Nima yangiliklar? – dedi u.

– Juda yomon xabar bor, – dedi Vinni Pux. – Do'stim Xo'tikvoy dumini yo'qotib qo'yibdi. Shuning uchun hozir u xafa. Iltifot ko'rsatib, uni qanday topish mumkinligini aytolmaysizmi?

– Xo'sh, – dedi Ukki, – odatiy muolajani qo'llash kerak.

– Olmali murabbo deysizmi? U nima degani? – so'radi Vinni Pux. – Axir men aqli kalta ayiqman, uzun so'zlarni aytishga qiynalaman.

– Bu bajarilishi kerak bo'lgan ish, degani.

– Unday bo'lsa, mayli, – dedi Vinni Pux sami-miygina.

– Bajarilishi kerak bo'lgan ishga o'tamiz. Avvalo, mukofotdan gaplashsak. Keyin esa...

– Shoshmay turing, – dedi Vinni Pux panjalarni ushlab. – Nima qilish kerak, deysiz? Gapiramani deb, aksirib yubordingiz.

– Aksirganim yo'q.

– Ha, aksirdingiz, janob Ukki.

– Kechirasan, Vinni Pux, men aksirmadim. Aksirishni bilmay turib qanday aksa urish mumkin?

– To'g'ri, aksirishni bilmasangiz, aksirolmaysiz.

– Nima deyotgandim, avval ishni bajarish kerak, so'ng mukofot...

– Ana, yana aksirdingiz, – dedi Vinni Pux g'amgin.

– Mukofot! – deb baqirdi Ukki. – Biz «Xo'tik-voyning dumini topganga katta mukofot bor», deb e'lon yozishimiz kerak.

– Tushundim, tushundim, – deya Vinni Pux boshini qimirlatdi. – Katta narsalar haqida gapiryapsiz, – u orzu qila boshladi. – Hozir menga kichikroq narsa ham bo'laveradi, – degancha Ukkining javoniga qarab qo'ydi. – Ozgina qaymoqmi yoki boshqa narsami, asal bo'lsa ham mayliydi.

– Mayli, biz bu xabarni yozib, butun o'rmonga joylashtirib chiqamiz, – dedi Ukki.

Vinni Pux asal haqida o'ylab, labini yaladiyu, chuqur xo'rsindi va Ukkining gaplarini e'tibor bilan tinglashga majbur bo'ldi. Ukki uzun va murakkab so'zlarni aytib, rosa uzoq gapirdi hamda xabarni Kristofer Robin yozishi mumkinligini tushuntirdi.

– Eshigimning tagiga yozgan ham u edi. Ko'r dingmi, Vinni Pux?

Shu paytgacha Vinni Pux ko'zini yumib ochib, «Ha» yoki «Yo'q» deb turgandi. Shuning uchun hozir Ukki nimani so'raganini mutlaqo bilmay qoldi.

– Ko‘rmadingmi? – so‘radi Ukki, jinday hayratlanib. – Kel, ko‘rib qo‘y.

Shunday qilib ular tashqariga chiqdilar. Vinni Pux qo‘ng‘iroqqa va uning tagidagi yozuvga nazar soldi, so‘ngra ipli qo‘ng‘iroq tagidagi xabarga ham qaradi, ko‘proq qo‘ng‘iroqning ipiga boqdi va shunga o‘xshash narsani qachondir qayerdadir ko‘rganday bo‘lganini esladi.

– Chiroyli qo‘ng‘iroq, to‘g‘rimi? – dedi Ukki.

Vinni Pux bosh silkidi.

– U menga nimanidir eslatyapti, lekin nimaligini bilolmayapman. Uni qayerdan olgansiz o‘zi?

– O‘rmondan qaytayotganimda, butaga osilib yotgan ekan. Avvaliga bu yerda kimdir yasha-sa kerak, deb uni jiringlatib ko‘rdim, hech nima bo‘lmadi. So‘ngra qattiqroq tortgandim, qo‘limga tushib qoldi va hech zog‘ uni qidirmaydiganday tuyuldi menga. Uni uyga olib keldim va...



– Janob Ukki, – dedi Vinni Pux sevinib, – siz xato qilibsiz. Uni qidirib yuribdi.

– Kim?

– Xo‘tikvoy do‘stim. U dumini juda yaxshi ko‘rardi.

– Yaxshi ko‘rardi?

– Unga bog‘lanib qolgandi, – qo‘s Shimcha qildi Vinni Pux xafa bo‘lib.

Shu so‘zlarni ayta Vinni Pux do‘sti eshakvoyga dumini qaytarib keldi. Keyin esa Kristofer Robin Xo‘tikvoyning dumini joyiga mahkamlab qo‘yganida u o‘rmonda shataloq otib o‘ynab, baxtiyorlarcha likillatib qo‘yardi. Vinni Pux bundan rosa zavqlandi va biror nima tamaddi qilib olish, o‘zini to‘q tutish uchun uyiga shoshdi.

Oradan bir soatlarcha vaqt o‘tgach, og‘zini artilib qo‘yib, o‘zidan mag‘rurlanib, kuylay ketdi:

*– Dumni kim topib berdi?
Albatta, men, Vinni Pux.
Chorakam o‘n ikkida
(Aslida chorakam o‘n bir edi)
Men dumni topib berdim!*

BESHINCHI BOB

**PUCHUQVOYNING FILCHA
BILAN UCHRASHGANI HAQIDA**

Bir kuni Kristofer Robin, Vinni Pux hamda Puchuqvoy birga ketishayotgandi, Kristofer Robin og'zi to'la narsani yeb bo'lgach, astagina dedi:

- Men bugun Filchani ko'rdim, Puchuqvoy.
- Nima qilayotgan ekan? – so'radi Puchuqvoy.
- Yolg'iz o'zi xomush turgandi. Menimcha, u meni ko'rmadi-yov.
- Men ham bir marta ko'rgandim, adashmasam. Balki u Filchamasdir, – dedi Puchuqvoy.
- Men ham hayronman, Filcha nimaga o'xsharkan-a?
- Uni tez-tez ko'rib turasizlarmi? – dedi Kristofer Robin.
- Hozirmas, – dedi Puchuqvoy.
- Yilning bu faslida emas, – qo'shimcha qildi Vinni Pux.

So'ngra ular toki Vinni Pux va Puchuqvoyning uyga ketadigan vaqtি bo'lgunga qadar yana al-lanimalar haqida suhbatlashishdi. Avval katta o'rmonga olib boradigan yo'lakdan yolg'iz o'zlari yurishdi. Bir-birlariga unchalik ko'p gapishtadi. Ariq bo'yiga yetib kelishganida toshlardan o'tishga bir-birlariga yordam berishdi. Archagullar oralab endi do'stona suhbatni boshladilar:

- Nimani nazarda tutayotganimni tushundingmi, Vinni Pux, – dedi Puchuqvoy.

– Men ham shuni o'ylab turgandim, Puchuqvoy.

– Ammo, Vinni Pux, buni eslab qolish kerak.

– Bir daqiqa unutganimni hisobga olmaganda, to'ppa-to'g'ri aytasan, Puchuqvoy.

Keyin ular oltita qarag'ay daraxti yoniga kelganida Vinni Pux suhbatni hech kim eshitmayaptimikan, degan hadikda atrofga qarab qo'ygach, jiddiy ohangda dedi:

– Puchuqvoy, men bir narsaga qaror qildim.

– Nimaga qaror qilding?

– Filchani tutishga.

Shu gapni aytgan Vinni Pux boshini bir necha marotaba chayqab qo'ydi va Puchuqvoyning «Qanday qilib» yoki «Bu ish qo'lingdan kelmaydi!» yoki shunga o'xshash so'zlarni aytishini kutdi. Biroq Puchuqvoy og'iz juftlamadi. Gap shundaki, Puchuqvoy bu haqda birinchi o'ylamaganidan afsuslanardi.

– Shunday qilishim kerak, – dedi Vinni Pux qopqon haqida picha vaqt o'ylagach. – Bu ayyorona qopqon bo'lishi lozim, shunday ekan, menga yordam berishingga to'g'ri keladi.

– Vinni Pux, – dedi Puchuqvoy baxtiyor bo'lib yana. – Albatta, yordam beraman. Qopqonni qanday tayyorlaymiz?

– Hamma gap shunda-da. Qanday qilib?

So'ngra ular birgalikda masalaning yechimini o'ylab topishga kirishdilar. Vinni Puxning birinchi g'oyasi chuqur o'ra qazish bo'ldi, Filcha bir o'zi kelganda unga tushib ketadi.

– Nega? – so'radi Puchuqvoy.

– Nima nega? – dedi Vinni Pux.

– Nimaga u yiqilib tushishi kerak?

Vinni Pux panjasи bilan burnini qashlab ol-gach, shunday javob berdi:

– Filcha qo’shiq aytib yolg’iz kelayotganida, osmonga qaraydi, yomg’ir yog‘ayotgan bo’lsa, hayratlanadi va chuqur o’rani ko’rmay qoladi. Pastga tushganini ko’rganida ahvol chatoqligini biladi.

Puchuqvoy bu yaxshi qopqonligini aytib, «Le-kin yomg’ir yog‘ayotgan bo’ladimi?» deb so’radi. Vinni Pux yana burnini qashladi va buni o’ylab ko’rmaganini bildirdi. Keyin uning chehrasi yori-shib, shunday dedi:

– Filcha yomg’ir yog‘masmikan deb, osmonga qaraydi va chuqur o’rani ko’rmay, pastga tush-ganida endi juda kechligiga amin bo’ladi.

Puchuqvoy mana bu tushunarli gap bo’lgani-ni aytib, uni «Ayyorona qopqon» deb atadi. Vin-



ni Pux uning so'zlaridan mag'rurlanib ketdi. Filchani deyarli qopqonga tushganday his qildi. Ammo yana bir narsa bor edi. Ular chuqur o'rani qayerga qazishadi?

Puchuqvoy Filcha joylashgan yer eng yaxshi joyligini ma'lum qildi. U bir qadam tashlagach, o'zining chuqurdaligini biladi.

– Lekin biz yerni qaziyotganimizni u ko'rib qoladi-ku, – dedi Vinni Pux.

– Yo'q, agar u osmonga qarayotgan bo'lsa, ko'rmaydi.

– Filcha shubhalanib qoladi-yov. Mabodo yerga qarab qolsa-chi, – deb Vinni Pux uzoq vaqt o'ylan-di va g'amgin ohangda dedi: – Bu men o'ylagan-chalik oson emas ekan. Filchalarni tutish nega mushkulligini endi tushunyapman.

– Ayni haqiqat, – ta'kidladi Puchuqvoy.

Ular xo'rsinib qo'yib, o'rnidan turdilar. O'zlari-ga yopishgan bir muncha tikonlarni olib tashlab, yana o'tirib olishdi, Vinni Pux o'ziga o'zi gapi-rishdan tolmasdi, «Biror narsa haqida o'lay ol-sam edi!» derdi. Chunki juda aqli miya Filchani tutishga qodirligiga uning ishonchi komil edi, qaniydi uni qo'lga tushirishning to'g'ri yo'lini bilsay-di. «Agar meni tutib olishni istaganingda, nima qilgan bo'larding, Puchuqvoy?»

– Men mana bunday yo'l tutardim. Qopqonni tayyorlab, bir xum asalni ham unga solardim. Sen asalning hidini iskab kelib...

– Uning ketidan kelaman, faqat o'zimga ziyon keltirmaslik uchun juda ehtiyyotkor bo'laman, – dedi Vinni Pux hayajonga to'lib. – Men xumni ushlab, uning chetlarini yalayman, unda hech narsa yo'qday o'zimni paysalga solaman hamda

yo'limda davom etib, bu haqda ozroq o'ylayman. So'ng yana ortimga qaytib kelib, xumning o'rta-sini yalayman va keyin...

– Ha, yaxshi, o'zingga nima bo'lishi haqida sira o'ylamaysan va men seni tutib olaman. Endi esa birinchi navbatda Filcha nimani yaxshi ko'rishini o'ylash kerak. Fikrimcha, u dub daraxtining mevasini yeidi-yov. Ko'proq olishimiz lozim undan, eshitdingmi, uyg'on endi, Vinni Pux!

Vinni Pux bu paytda shirin uyquga ketgandi, shartta uyg'onib tushdi va asal mevadan ko'ra xavfliroq narsaligini aytди. Puchuqvoy esa bunday deb o'ylamasdi, keyin ular tortishib ketishdi, Puchuqvoy dub daraxtining mevasini qopqonga qo'yishni ma'qul ko'rganida, mevani topishiga to'g'ri keldi. Biroq ular asalni qo'yishsa, Vinni Pux o'z asalidan ozgina olib keladi. Shunday qilib u «Mayli, asal bo'lsa, asal-da» deganida Vinni Pux ham o'z fikrini ma'qulladi: «Yaxshi, dub daraxtining mevasi bo'la qolsin». «Asal», – dedi Puchuqvoy o'ylanib.

– Asalni olib kelguningcha, men chuqur qazib turaman.

– Juda soz, – deya Vinni Pux yo'lga otlandi.

Uyga yetib kelganida, u oziq-ovqat javoni tomon yurdi, stulga chiqib, javonning eng tepasidagi asal xumni oldi. Xumga «ASAL» deb yozilgandi, biroq ko'ngilni to'qlash uchun unga yopilgan qog'ozni olib qaradi, xumdag'i narsa asalga o'xshardi. «Kim bilsin, – dedi Vinni Pux. – Esimda, bir safar tog'am xuddi shunday rangdagi pishloqni ko'rganligini aytgandi». Shunday deya u xumga tilini tiqib, yalab ko'rdi. «Ha, bu shak-shubhaisiz asal», dedi u. «ASAL» degan yozuvni xumning

eng pastki qismiga yozib qo'yishim kerak chog'i. Albatta, agarda kimdir uning pastiga hazil tariqa-sida pishloq qo'yib qo'ymasa. Balki, nariroq ket-ganim durustdir... Yaxshisi... Filchalar pishloqni yoqtirishmasa-chi... Men kabi... Eh! – deb chuqur xo'rsindi Vinni Pux. – Adashmadim, bu asal edi, aslida ham shunday».

Asalligiga ishonch hosil qilgan Vinni Pux xumi Puchuqvoyga olib keldi. Puchuqvoy o'zining chuqur o'rasidan qarab, «Olib keldingmi?» dedi. «Ha, biroq xum to'la emas-da», javob berdi Vinni Pux va xumni pastga otdi. «Yo'q, unday emas ekan! Qoldirganing shumidi?» so'radi Puchuqvoy. «Shunday», dedi Vinni Pux. Haqiqatan ham shunaqa edi. So'ngra Puchuqvoy xumni o'raning eng tagiga joylab, o'zi o'rmalab tepaga chiqib oldi, so'ng birgalashib uyga ketishdi.

– Xo'sh, xayrli tun bo'lmasa, Vinni Pux, – dedi Puchuqvoy Vinni Puxning uyiga yetishgani-da. – Ertaga soat oltida qarag'ay daraxti oldida uchrashamiz, ko'ramiz hali qancha Filchalar qopqonga tushar ekan.

– Soat oltida, Puchuqvoy. Lekin senda arqon bormi?

– Yo'q. Uni nima qilasan?

– Uyga olib kelishda yetaklash uchun.

– Voy! Filchalar hushtak chalsang, o'zi kela-veradi, deb o'ylabman.

– Ba'zilari shunday qiladi, ayrimlari esa yo'q. Sen sira Filchalar bilan gapplashmagansan. Mayli, xayrli tun!

– Xayli tun!

Vinni Pux to'shagini tayyorlaguncha, Puchuqvoy dikong-dikonglab, uyi O'zboshimcha V tomon yurib ketdi.

Biron soatlardan keyin, qosh qorayib, barcha joyni zulmat qoplay boshlaganida, Vinni Pux uyg'ondi va to'satdan o'zini holsiz sezdi. U ilgari ham shunday holatni boshidan kechirgandi va bu nimadan dalolatligini yaxshi bilardi. U och qolgandi. Keyin oziq-ovqat javoni tomon borib, stulga chiqib, tepaga qo'lini cho'zib paypasladи, qo'liga hech narsa ilinmadи.

– Qiziq bo'ldi-yu, – deb o'yładi u. – Axir shu yerda bir xum asalim bor edi-ku. Bir xum to'la asal edi-ya, tepada turardi. Unga «ASAL» deb yozib qo'yilgandi ham. Shu tariqa uning asalligini bilardim. Bu juda qiziq.

Vinni Pux hayron qolgancha pastga tushdi. Hayratlanib, o'ziga o'zi mana bunday g'o'ng'illay, g'o'ng'illay ketdi.

*Xum to'la asal edi,
Pux unga kasal edi.
Endi o'sha asali,
Yo'qdir ovqat mahali.*

*Qaylargacha ketgan bo'lsa,
Kimni shod etgan bo'lsa.
Vinni hech nima demas,
Och qolsa, asal yemas.*

U o'ziga o'zi g'o'ng'illab uch marotaba qo'shiq qilib aytdi. To'satdan eslab qoldi: Filchani ush-lash uchun asalni o'ra qopqonga qo'yib kelgandi.

– Yetar! Buning hammasi Filchaga mehr ko'rsatish uchun, – deb yana yotog'iga qaytdi.

Ammo u uxlolmadi. Qanchalik uyquga ketishga urinsa, shunchalik qo'lidan kelmadi. Uxlab qo-

lish uchun eng samarali hisoblangan yo'lni, ya'ni «qo'yłarni sanash»ni ham sinab ko'rdi. Biroq baribir qo'lidan kelmadı. Bu ham ish bermaganidan so'ng, u Filchalarni sanay ketdi. Bu esa undan battar bo'ldi. Negaki, sanalayotgan har bir Filcha Vinni Puxning idish to'la asaliga ko'z olaytirib, uni yeb qo'yishardi. Bir qancha daqiqa o'tganidan keyin, u jim yotdi, besh yuz sakson yetti Filcha xumini yalab, «Juda shirin asal ekan, bunaqasini yemagan-dim sira» deganida, Vinni Pux ortiq chidolmasdan shartta o'rnidan turib ketdi. Uyidan yugurib chiqib, o'sha oltita qarag'ay daraxti tomon yugurdi.

Quyosh hamon uxlari, ammo osmondan katta o'rmonga chamasi yorug'lik taralib turardi. Go'yoki uyg'onishga undardi. Qorong'ilik tushgan paytda qarag'ay daraxti sovuq va yolg'iz ko'rinar-di. Juda chuqur o'ra oldingidan ham chuqurroq tuyuldi. Vinni Puxning asal to'la xumida qanday-dir sirli narsa ko'rindi. Uning yoniga yaqinlash-ganida esa burni bu haqiqatan ham asal ekan-ligini sezdi. Tili bilan xumni yalab, yejish uchun shay turardi...

– Yo'q! – dedi Vinni Pux burnini xumning ichiga tiqqanida, – buni Filcha yejishi kerak edi! – So'ngra o'ylab qoldi: – E, yo'q, nima qilib qo'ydim. Esimdan chiqibdi.

Darhaqiqat, u ko'pgina asalni paqqos tushirib olgandi. Biroq xumning tagida ozgina qolgandi, u boshini tiqib yalay boshladi...

Puchuqvoy ham uyg'ondi. Tura solib o'ziga o'zi shunday dedi: «Voy!» keyin u mag'rurlanib, «Ha», dedi va undan keyin «Juda to'g'ri», deb aytdi. Ammo u o'zini juda mag'rur his qilmasdi, chunki uning miyasida «Filchalar» degan so'z aylanardi.

– Filcha nimaga o'xshaydi o'zi? U jahldormakin? Hushtak chalganingda yugurib keladimi? Uni Puchuqvoy topdimi? Uni Puchuqvoy topdi, Puchuqvoyga o'xshaydimi?

U mana shunday savollarning birontasiga ham javob bilmassi... Hozir esa chamasi bir soatdan beri ilk filchasini ko'rgani ketmoqda! Shubhaisiz, Vinni Pux u bilan birgadir-ov. Ikkalasi bilan do'stlashish yana-da maza. O'ylashimcha, Filchalar Puchuqvoylardan ham, Ayiqlardan ham juda jahldor bo'lsa kerak? So'ngra uning miyasi-ga aqli bir g'oya kelib qoldi. U astagina qarag'ay daraxti tomon boradi, ehtiyyotkorona qopqonga nazar soladi hamda o'sha yerda Filcha bo'lsa, yotog'iga qaytib ketadi, agar bo'lmasa, u ham bir qadam jilmaydi.



Shu zaylda yura boshladi. Avvaliga u qopqonda Filcha yo‘q deb o‘yladi. Keyin u yerda aniq bor dedi va o‘raga yaqinlashganda gapi rostligiga ishondi. Chunki chuqurda qora filchasimon bir nima yotardi.

– Voy sho‘rim, voy sho‘rim! – dedi Puchuqvoy o‘ziga o‘zi va shu tobdayoq qochib qolishni istadi. Lekin Filchaning qandayligini ko‘rgisi keldi. Shuning uchun pastga qaradi.

Endi deng, Vinni Pux boshini xumdan chiqarolmay halak. Uni qanchalik qimirlatsa, shunchalik boshi tiqilib borardi. «Jin ursin!» derdi u xumning ichidan. «Yordam beringlar! Voy-yey!» deb boshini ro‘parasidagi narsaga urdi, qarshisidagi nimaligini bilmagani uchun bu zarba unga yordam bermadi; u o‘rada o‘rmalay ketdi, lekin xumdan boshqani ko‘rmasdi, yo‘lini topolmadi. So‘ngra boshini, xumni, xullas, hammasini ishga soldi, baland ovozda, g‘amgin va alamzadalik ila o‘kirdi... Bu paytda Puchuqvoy pastga qarayotgandi.

– Yordam bering, yordam! Filcha, dahshatli Filcha! – u imkonи boricha yugurar va hamon baland ovozda qichqirardi. – Yordam, yordam, dahshatli Filcha!

U toki Kristofer Robinning uyiga yetgunicha qichqirib, yugurib keldi.

– Nimalar bo‘ldi, Puchuqvoy? – so‘radi endigina o‘rnidan turgan Kristofer Robin.

– Fi, – dedi Puchuqvoy, qattiq-qattiq nafas ola, zo‘rg‘a gapisarkan. – Fi, Fi, Filcha.

– Qayerda?

– Bu yerdan teparoqda, – dedi Puchuqvoy panjasini to‘lqinlantirib.

– U nimaga o'xshaydi?

– O'xshaydi, sen ilgari sira uchratmagan katta kallasi bor uning, Kristofer Robin. Juda bahaybat narsa, xuddi xumga o'xhash.

– Qara-ya, – dedi Kristofer Robin tuflisini olarkan. – Borib ko'ray-chi. Ketdik.

Agar Puchuqvoy Kristofer Robin bilan birga bo'lsa, aslo qo'rqlmaydi, shu zaylda ular birligida olg'a odimlashdi...

– Men uni eshitmayapman, sen-chi? – so'radi Puchuqvoy xavfsirab, u yerga yaqinlasharkan.

– Nimanidir eshityapman, – javob berdi Kristofer Robin.

Bu boshini daraxt ildiziga urayotgan Vinni Pux edi.

– Ana! U xavfli emasmi? – degan Puchuqvoy Kristofer Robinning qo'lini mahkam ushlab oldi.

Kristofer Robin birdan kula boshladи. U kulaverdi, kulaverdi va yana kuldil... Kristofer Robin xandon otayotganida, filchaning boshi daraxt tomiriga tegib, xum darz ketdi, paq etdi-da, undan Vinni Puxning boshi chiqdi...

Puchuqvoy buni ko'rib, naqadar ahmoq bo'lganidan, o'zidan rosa uyalib, to'g'ri uyiga qarab chopib ketdi. Uyiga yetgach, boshi og'rib, ko'rpa-to'shakka burkandi. Kristofer Robin hamda Vinni Pux nonushta qilish uchun birga uyga kelishdi.

– Voy, Ayiqqinam! Men seni shunaqayam yaxshi ko'ramanki! – dedi Kristofer Robin.

– Men ham, – deb qo'ydi Vinni Pux.

OLTINCHI BOB

**XO'TIKVOYNING
TUG'ILGAN KUNI VA U IKKITA
SOVG'A OLGANI HAQIDA**



o'tikvoy ariq bo'yida turib, suvda o'z ak-sini kuzatmoqda.

– Achinarli, – dedi u. – Bu juda yomon.

U burilib, ariq bo'ylab pastga astagina yura boshladi. Suvni sachratib ariqni kesib o'tdi va ortiga o'girilib, boshqa tarafga yurdi. So'ngra suvda o'zini yana kuzatdi.

– O'ylab qarasam, boshqa tarafdan qarasam ham, baribir eski hammom, eski tos ekan, shunaqa gaplar.

Shu tobda uning ortida ovoz eshitildi, bu lapanglab kelayotgan Vinni Pux edi.

– Xayrli tong, Xo'tikvoy, – dedi Vinni Pux.

– Xayrli tong, Vinni Pux, – salom berdi Xo'tikvoy g'amgin. – Agar bu chindan-da xayrli tong bo'lsa. Unga shubham bor-ov, – qo'shimcha qildi u.

– Nega, tinchlikmi o'zi?

– Hech nima, Momiqvoy, hech nima. Biz hech narsani eplolmaymiz, qo'limizdan kelmaydi.

– Nimani eplolmaymiz? – deb Vinni Pux burnini qashlab qo'ydi.

– Vaqtichog'lik. Qo'shiq hamda raqsga tushishni-da. Barchamiz aylana o'yinini o'ynarmidik.

– Shunday degin! – dedi Vinni Pux. U uzoq muddat o'ylangach, dedi: – Aylana o'yini nima o'zi?

– Hayu chittigul, – degancha g‘amgin Xo‘tikvoy yura ketdi.

Vinni Pux katta toshga o‘tirib, chuqur o‘yga toldi. Ushbu so‘z unga misli masaladay tuyuldi. Uning esa masalalar borasida ahvoli tang, axir u aqli kalta Ayiq bo‘lsa. So‘ng buning o‘rniga «Shirin kulcha»ni kuyladi.

*Shirin kulcha, shirin kulcha,
Yemasin hech uni qushcha.
Masalani yechgunimcha
Yeb turaman shirin kulcha.*

Bu qo‘sinqning birinchi qismi edi. Uni yakun-laganida Xo‘tikvoy qo‘sinqni yoqtirmaganini aytmadи. Keyin Vinni Pux ashulasining ikkinchi qismini ham kuyladi.

*Shirin kulcha, shirin kulcha,
Baliq hech ham chalmas hushtak.
Men kabi hushtak chalguncha
Yeb turaman shirin kulcha.*

Xo‘tikvoy hamon lom-mim demagach, Vinni Pux o‘ziga o‘zi ming‘illab, qo‘shig‘ining uchinchi qismini kuyladi:

*Shirin kulcha, shirin kulcha,
Nega unday bu jo‘jacha?
Masalani yechgunimcha
Yeb turaman shirin kulcha.*

– Mana bunisi to‘g‘ri, – dedi Xo‘tikvoy. – Tam-tara-ram-pam, deb qo‘shib qo‘yish kerak. Ana endi yong‘oq va do‘lana teramiz. Qani ketdik!

- Ketdik.
- Men borolmayman, – dedi Xo‘tikvoy.
- Nega endi, nima bo‘ldi?
- Nimadir bo‘lishi kerakmi?
- Juda xafa ko‘rinasan-da, Xo‘tikvoy?
- Xafaman? Nimaga xafa bo‘lishim kerak?

Axir bugun mening tug‘ilgan kunim-ku. Yilning eng baxtli kuni.

– Tug‘ilgan kuningmi? – dedi Momiqvoy hayratlanib.

– Albatta. Ko‘rmayapsanmi? Qara, qancha sovg‘alar olganimni. – U oyoqlarini u yon bu yon qimirlatib qo‘ydi. – Ana, tug‘ilgan kun torti. Shamlar va pushtirang shakariga qara.

Vinni Pux o‘ng va chap tarafga ko‘z yogurtirdi.

– Sovg‘alar? Tug‘ilgan kun torti? Qani? – so‘radi Vinni Pux.

– Ularni ko‘rmayapsanmi?

– Aslo.

– Men ham ko‘rmayapman. Hazil, – dedi Xo‘tikvoy va kului.

Vinni Pux xuddi boshi qotganday qoshini qashlab qo‘ydi.

– Lekin rostdan ham tug‘ilgan kuningmi? – so‘radi u.

– Albatta.

– Zo‘r-ku! Bu kuni hamma xursandchilik qiladi, Xo‘tikvoy.

– Unda seni ham tabriklayman, Vinni.

– Tug‘ilgan kun meniki emas-ku.

– Yo‘q, meniki. Lekin hozirgina hamma xursandchilik qiladi, deding-ku. Axir har kuni ham tug‘ilgan kunimni nishonlamaymiz-ku, to‘g‘rimi?

– E-ha, to‘g‘ri, – dedi Vinni Pux.

– Bu yaxshi emas, – dedi Xo‘tikvoy tomdan tarasha tushganday. – Hech qanday sovg‘a yo‘q, tort va shamlar, ularni olib keladigan do‘stram ham yo‘q, shuyam tug‘ilgan kunmi?

Uning so‘zлари Vinni Puxga yetarli bo‘ldi.

– Shu yerdan qilt etmay tur! – dedi Vinni Pux Xo‘tikvoyga va uyiga shoshdi, u bechora Xo‘tikvoyga qandaydir sovg‘a berishi kerakligini o‘yladi.

Uyining tashqarisida, eshik qo‘ng‘iroqchasi-ga sakrayotgan Puchuqvoyni ko‘rib qoldi.

– Salom, Puchuqvoy, – dedi Vinni Pux.

– Salom, Vinni Pux, – dedi Puchuqvoy.

– Nimaga buncha chirmashyapsan?

– Qo‘ng‘iroqchaga yetishga intilyapman. Hozirgina aylanib keldim...

– Kel, men yordamlashaman, – dedi Vinni Pux mehribonchilik ko‘rsatib. So‘ngra u qo‘ng‘iroqchaga yetib, eshikni taqillatdi. – Hozirgina Xo‘tikvoyni ko‘rib qoldim, u juda g‘amgin edi. Chunki bugun uning tug‘ilgan kuni ekan. Hech zog‘ uni tabriklamabdi, shunga rosa xafa. Xo‘tikvoy kimligini bilasanmi o‘zi, u bu yerda yashagan, kim bu yerda uzoq vaqt yashagan bo‘lsa, shu eshik biladi, – deb Vinni Pux eshikni yana taqillatdi.

– Biroq, Vinni Pux, axir bu sening uying-ku.

– Ha-ya! Qani ichkariga kiraylik-chi, – dedi u.

Ular ichkariga kirishgach, Vinni Pux oshxon-a javonida turgan kichkina xumdag'i asali tomon oshiqdi, bor ekan, uni pastga oldi.

– Men buni Xo‘tikvoyga sovg‘a tariqasida olib boraman, sen-chi?

– Senga sherik bo'lsam maylimi? Sovg'a ik-kimiz nomimizdan.

– Qo'y-e, bu yaxshi fikr emas.

– Yaxshi, unda uyimga borib, ziyofatdan qol-gan pufagimni olib kelaman.

– Mana shu juda zo'r fikr, Puchuqvoy. Xo'tik-voy pufak bilan o'ynashni yoqtiradi.

Keyin Puchuqvoy shosha-pisha ketdi, boshqa tarafdan Vinni Pux asalli xumi bilan man-zilga otlandi. Kun issiq edi. Uning oldida uzoq yo'l bor. Uni qiziq bir his chulg'ab olmagunga qadar, u yarim yo'ldan ortiq yurolmadi. Bu his burnining ustidan boshlanib, butun tana-si bo'ylab tarqalib, oyoq panjasigacha bordi. Uning ichida kimdir shunday deyotganday edi: «Vinni Pux, rosa vaqtি keldi».

– Azizim, azizim, – derdi Vinni Pux. – Hech-dan ko'ra kechroq.

Keyin u o'tirib, xumini ochdi. «Omadni qa-rang-a, o'zim bilan uni olvoldim», deb o'yladi u. «Ko'p ayiqlar issiq kunda ko'chaga chiqishadi-yu, ammo o'zi bilan hech narsa ovolmaydi», deb u assalni yeishni boshladи.

– Qani bir ko'ray-chi, – o'yladi Vinni Pux, oxirgi marta xum ichini yalarkan. – Qayoqqa ketayotgandim o'zi? Eh-ha, Xo'tikvoyning yoni-ga. – U asta o'rnidan turdi.

Keyin to'satdan esiga tushib qoldi. Axir u Xo'tikvoyning sovg'asini yeb qo'ydi-ku.

– Attang! Endi nima qildim! Unga nimadir berishim kerak axir.

Bir muddat u hech narsani o'lay olmadi. Keyin esa: «Xo'sh, manavi juda yaxshi xum-cha, garchi ichida asali bo'lmasa ham. Agar uni

yaxshilab yuvsam va ustiga «Tug‘ilgan kuning bilan» deb yozsam yaxshi sovg‘a bo‘ladi-qoladi. Xo‘tikvoy unda o‘ziga kerakli narsalarni saqlaydi».

Vinni Pux katta o‘rmondagi Ukkining qaror-gohiga kirdi.

- Xayrli tong, janob Ukki, – dedi Vinni Pux.
- Salom, Vinni Pux, – alik oldi Ukki.
- Bugun shodiyona, Xo‘tikvoyning tug‘ilgan kuni, – tantanavor ohangda aytdi Vinni Pux.
- O‘-ho‘, shunaqa degin.
- Unga beradigan sovg‘angiz bormi, janob Ukki?
- O‘zingda-chi?
- Men unga kerakli xumcha beryapman, narsalarini solib yurgani.
- Mana shumi? – deb Ukki xumni Vinni Puxning qo‘lidan oldi.
- Ha-da, sizdan shuni so‘ramoqchiydimki...
- Ichida kimdir asal saqlamaganmi?
- Unda hamma narsani bemalol saqlash mumkin, – dedi Vinni Pux qat’iy. – Xum mana shunaqa asqotadigan narsalardan. Xullas, sizdan so‘ramoqchi edimki...
- Unga «Tug‘ilgan kuning bilan» deb yozi-shing darkor.
- Aynan shuni so‘ramoqchi edim, – dedi Vinni Pux. – Chunki mening talaffuzim yaxshimas. Yaxshi talaffuz qilaman-u dirildoq-da, harflar noto‘g‘ri joylashib qoladi. Sovg‘amga «Tug‘ilgan kuning bilan» deb yozib berolasizmi?
- Sinchiklab bir boshdan nazar tashlasang, bu durust idish ekan. Uni ikkimizning nomimizdan bersak, nima deysan?

– Hechamda. Bu yaxshi emas. Hozir uni yuvaman-da, keyin siz unga yozasiz.

Ukki qalamini siyohga tekkizib, «tug‘ilgan kun» qanday yozilishini o‘ylaguncha Vinni Pux idishni yuvib quridi.

– O‘qishni bilasanmi, Vinni Pux? – so‘radi u biroz xavotirlanib. – Manavi eshigimga Kristofer Robin yozib bergen, taqillatish va qo‘ng‘iroq chalish haqidagi e‘lon. Uni o‘qiy olasanmi?

– Kristofer Robin nima deb yozilganini aytgan, keyin o‘qiganman.

– Mayli, unda men ham yozib ko‘rsataman. Xullas, Ukki mana bunaqa yozdi:

«TG‘ILAGUN KNUNIG BALIN»

Vinni Pux quvonib qaradi.

– Mana, hozirgina «Tug‘ilgan kuning bilan» deb yozdim, – dedi Ukki ehtiyyotkorona.



– Uzun so‘z ekan, – dedi Vinni Pux qattiq ta-assurotda qolarkan.

– Bo‘lmasam-chi. Endi shunday yozaman: «Tug‘ilgan kuning bilan, qadrdoning Vinni Pux». Aslida shunday uzun so‘zni yozish uchun qalamdan yaxshigina mehnat talab qilinadi.

– Ha, albatta, – dedi Vinni Pux.

Ular sovg‘a tayyorlashayotgan bir paytda Puchuqvoy ham uyiga borib kelgandi. U o‘z sovg‘asi pufakni qattiq ushlab olgani bois uzoqqa uchib ketmasdi. Shu zaylda Xo‘tik-voyning yoniga Vinni Puxdan oldin yetib borishga oshiqdi. «Birinchilardan bo‘lib sovg‘ani beraman», deb o‘ylagandi va bu haqda hech kimga og‘iz juftlamaslikka qaror qilgandi. U yolg‘iz o‘zi yugurarkan yo‘l-yo‘lakay Xo‘tik-voyning mammun bo‘lishini ham o‘ylay ketdi, ammo u qayerga ketayotganini ko‘rmasdi... Pufak yuzini to‘sib qolgandi. Kutilmaganda u Quyonning uyiga qadam bosib yubordi va yuzi bilan yiqlidi.

PAQ!!!

Puchuqvoy o‘sha yerga yotib qoldi hamda nima bo‘lganiga tushunmadi. Avvaliga u butun dunyo paq bo‘ldi, deb o‘yladi, keyin esa faqat o‘rmon, so‘ngra yolg‘iz o‘zi Oyga yiqlidim, deb xayol qildi. Agar Oyda bo‘lsa, endi u Kristofer Robin, Vinni Pux yoki Xo‘tikvoyni ko‘rmayman, derdi. Keyin esa: «Agar Oyda bo‘lsam, yuzim pastga qaramasdi», dedi-da, asta o‘rnidan turib, yon-veriga nazar soldi.

U hamon o‘rmonda edi!

– Juda qiziq bo‘ldi-yu. Hayronman, paq etgan nima edi? Men yiqlganimda bunday shovqin

solmasdim. Pufagim qani? Iye, bu nam qiyqim nima qilib yotibdi bu yerda?

Bu pufak edi!

– Voy, azizim! – dedi Puchuqvoy. – Nachora, endi kech! Ortimga qaytib, boshqa pufakni olib kelishim darkor, balki Xo'tikvoy pufaklarni yoqtirmas.

Shunday qilib u old-orqasiga qaramay, otini qamchiladi, lekin endi xafaroq ko'rinaridi. Ariq tomonga kelganida Xo'tikvoy shu yerda ekanini ko'rib, uni chaqirdi.

– Xayrli tong, Xo'tikvoy, – qichqirdi Puchuqvoy.

– Xayrli tong, Puchuqvoy. Agar u rostdan ham xayrli bo'lsa.

– Tug'ilgan kuning muborak bo'lsin, – dedi Puchuqvoy unga yaqinlasharkan.

Xo'tikvoy suvda o'zini kuzatishdan to'xtab, Puchuqvoysa qattiq tikildi.

– Yana bir takrorla-chi, – dedi u.

– Tug'ilgan kun...

– Bir daqiqa.

Uchala tuyog'ini qimirlatib olib, to'rtinchı tuyog'i bilan qulog'ini tozaladi.

– Kecha ham tozalagandim shekilli, – deya tushuntirardi. – Bu juda oson. Xuddi shunday, endi yaxshiroq eshita olaman! Xo'sh, nima deyotganding?

– Tug'ilgan kuning muborak bo'lsin, – dedi yana Puchuqvoy.

– Menga aytyapsanmi?

– Albatta-da, Xo'tikvoy.

– Mening tug'ilgan kumin?

– Ha.

- Mening rostmana tug‘ilgan kunimmi?
- Xuddu shunday, Xo‘tikvoy, men senga sovg‘a olib kelganman.
- Xo‘tikvoy o‘ng tuyog‘ini tushirib, bir aylanib, chap tuyog‘ini ko‘tardi.
 - Men buni narigi qulog‘imga qo‘yishim kerak. Keyin-chi, – dedi u.
 - Sovg‘a, – baqirdi Puchuqvoy bor ovozda.
 - Yana menga aytyapsanmi?
 - Ha-da.
 - Hamon tug‘ilgan kunimmi?
 - Albatta, Xo‘tikvoy.
 - Mening haqiqiy tug‘ilgan kunimmi?
 - Shubhalanma, Xo‘tikvoy, men senga pufak oldim.
 - Pufak? Pufak dedingmi? Sen shishirgan katta rangli narsalardan birimi? Quvonch, qo‘shiq va raqs ham bo‘ladimi?
 - Ha, ammo ming bor uzr, uni senga sovg‘a qilmoqchi bo‘lib, yolg‘iz o‘zim yugurib kelayot-ganimda, yiqilib tushdim.
 - Eh, attang, naqadar omadsizlik! Balki juda tez yugurgandirsan. Biror joying lat yemadimi, Puchuqvoy?
 - Yo‘q, ammo men, Xo‘tikvoy, pufakni paqil-latib yubordim!
- Keyin oraga jimlik cho‘kdi.
- Mening pufagimnimi? – dedi Xo‘tikvoy.
- Puchuqvoy bosh chayqab qo‘ydi.
- Tug‘ilgan kunimga sovg‘a qilingan pufakmi?
- Xuddi shunday, Xo‘tikvoy, – dedi Puchuqvoy burnida ozgina xurillab qo‘yarkan. – Tug‘ilgan kuning bilan, – deb unga pufakning ho‘l bo‘lagini berdi.

– Bu o'shami? – so'radi Xo'tikvoy hayron qolib.

Puchuqvoy bosh chayqadi.

– Mening sovg'am?

Puchuqvoy yana boshini qimirlatdi.

– Pufak.

– Hmm.

– Rahmat senga, Puchuqvoy. So'rasam maylimi, – dedi yurarkan Xo'tikvoy, – pufak qanday rangda edi?

– Qizil.

– Ajoyib... Qizil pufak, – g'o'ng'illadi o'ziga o'zi.

– Mening sevimli rangim... Hajmi qanday edi?

– Xuddi menday kelardi.

– Hayratdaman... Puchuqvoyday katta bo'lsa,

– dedi g'amgin tus olib. – Hechqisi yo'q.

Puchuqvoy jim bo'lib, ne deyarini bilmay qoldi. U hanuz og'zi ochilib turardi, xuddi bir nima deydiganday, ariqning narigi tarafida kelayotgan Vinni Puxni ko'rganidan keyin, gapirish befoyda deb o'yładi.

– Tug'ilgan kuning muborak bo'lsin, – qichqirdi Vinni Pux, bu haqda allaqachon gapirganini unutib.

– Rahmat, Vinni Pux, bugun mening kunim,

– dedi Xo'tikvoy qovog'i ochilmay.

– Senga sovg'a oldim, – dedi Vinni Pux dadil.

– Sovg'am bor.

Vinni Pux ariqning o'rtasidan shapillatib Xo'tikvoy tomon kelardi, Puchuqvoy esa ozgina uzoqroqda turardi, boshini panjalari orasiga olib, o'ziga o'zi xurillardi.

– Bu kerakli xumcha, – dedi Vinni Pux. – Mana, unda «Tug'ilgan kuning bilan. Qadrdo-

ning Vinni Puxdan» degan yozuvi ham bor.
Unga narsalarinги solasan!

Xo'tikvoy xumchani ko'rganida, xursand bo'lib ketdi.

– Qoyil! Pufagim shu xumchaga sig'sa kerak!

– E, yo'q, Xo'tikvoy, pufaklar xumchaga sig'ishi qiyin. Pufakni nima qilasan, u kimniki?

– U meniki emas, – dedi Xo'tikvoy g'ururlanib. – Qara, Puchuqvoy! – Puchuqvoy atrofga xomush qaradi, Xo'tikvoy pufakni tishlari bilan yerdan olib, uni asta xumchaga soldi, uni tashqariga chiqardi va yerga qo'ydi; yana tepega ko'tardi, so'ngra ehtiyyotkorona joyiga qo'ydi.

– Mana uning joyi qayer! Ichiga sig'adi! – dedi Vinni Pux.

– Mana uning joyi qayer! Tashqariga ham chiqadi! – fikriga qo'shildi Puchuqvoy.

– Shunday emasmi? – dedi Xo'tikvoy. – Boshqa narsalar singari ichkariga ham kiradi va tashqariga ham chiqadi.

– Senga kerakli xumcha berganimdan juda baxtiyorman.

– Kerakli xumchaga solish uchun senga nimadir berganimdan mammunman, – dedi Puchuqvoy ham quvonib.

Ammo Xo'tikvoy ularga e'tibor bermasdi. U pufakni idishning ichiga solar va yana uni chiqarib olardi, shu tobda u har doimgidan-da baxtli edi.

– Men-chi, unga hech nima bermadimmi? – so'radi Kristofer Robin xafa bo'lib.

– Shak-shubhasiz, bergansan. Esingda yo'q-mi, mittigina edi, – javob berdim men.

- 
- Men unga bir quti bo‘yoqlar bergenman, har xil narsalarni chizib yursin, deb.
 - To‘g‘ri, shunday edi.
 - Nega uni ertalab bermadim?
 - Uning uchun ziyofat tayyorlayotganing bois juda band eding. Xo‘tikvoyning ajoyib tortida, uchta sham hamda pushtirang bilan yozilgan ismi bor edi va...
 - Ha, esladim, – dedi Kristofer Robin.

YETTINCHI BOB

KENGURU VA BOLAKAY RUNING O'RMONGA KELIB QOLGANI HAMDA PUCHUQVOYNING CHO'MILGANI HAQIDA

Hech zog' ularning qayerdan kelganini bilmasdi, biroq ular o'rmonda edilar: Kenguru va bolakay Ru. Vinni Pux Kristofer Robindan bu haqda so'radi:

- Ular qanday qilib bu yerga kelib qoldilar?
- Oddiy yo'l bilan, bildingmi, Vinni Pux?

Buni bilmagan Vinni Pux «Ha!» deb qo'ya qoldi. Keyin u ikki marotaba boshini qimirlatib, «Oddiy yo'l bilan», deb qo'ydi. Ushbu mavzuda qanaqa fikr bildirishini bilmoqlik uchun Puchuqvoyning uyiga bordi. Puchuqvoynikida Quyon ham bor ekan. Shunday qilib, ular birgalashib bu haqda suhbatlashishdi.

- Nimani yoqtirmasligimni bilasizlarmi? – dedi Quyon.
- Mana biz – Vinni Pux, Puchuqvoy va Men – keyin esa...
 - Xo'tikvoy, – qo'shimcha qildi Vinni Pux.
 - Ha, Xo'tikvoy hamda...
 - Ukki, – dedi Vinni Pux.
 - Ukki va keyin barchasi...
 - Eh, Xo'tikvoy, men uni unutibman, – dedi Vinni Pux.
- Shu yerda biz, – dedi Quyon juda sekin va ehtiyyotkorlik bilan. – Hammamiz bir kun erta-

lab uyg'ondik va kutilmaganda nima topib oldik? Oramizdan g'alati hayvonni topib oldik. Bu hayvon haqida ilgari sira eshitmagandik! U shunaqangi hayvonki, oilasini o'zi bilan cho'nta-giga solib yuradi! Menimcha, oilamni o'zim bilan cho'ntagimda olib yursam, menga qancha cho'ntak kerak bo'larkan-a?

– O'n oltita, – dedi Puchuqvoy.
– O'n yettitadir? – javob berdi Quyon. – Yana bittasi dastro'mol uchun bo'lsa, o'n sakkizta bo'ladi. O'n sakkizta cho'ntak bitta kostyumga. Eh, bosh qotirishga vaqtim yo'q.

Oraga uzoq hamda mulohazali sukunat cho'k-kach, bir necha daqiqa qoshlarini chimirib turgan Vinni Pux shunday dedi:

- Men uni o'n beshta qilaman.
- Nima? – dedi Quyon.
- O'n beshta.
- O'n beshta nima?
- Sening oilang.
- Ularga nima qipti?

Vinni Pux burnini qashlab qo'ydi va Quyon o'zining oilasi haqida so'zlamoqda, deb o'yladi.

– Rostdanmi? – dedi Quyon ikkilanib o'tirmay.
– Chin so'zim.
– Bo'lishi mumkin emas, Vinni Pux, – deb yubordi Puchuqvoy shartta. – Gap shundai, biz Kenguru haqida gaplashyapmiz.

– Ha-ya, – dedi Vinni Pux.
– Eng yaxshi yo'li, mana bu, – derkan Quyon gapida davom etdi, – yaxshisi, bolakay Runi yashirib qo'yamiz va Kenguru shunday deydi: «Bolakay Ru qayerda?» biz esa «Aha!» deymiz.
– Aha! – dedi Vinni Pux bu so'zni aytishni mashq qilarkan. – Aha! Aha! Albatta, biz «Aha!»

deymiz, garchi bolakay Runi o'g'irlolmasak ham,
– dedi.

– Vinni Pux, – dedi Quyon muloyimgina, –
aqling yo'q ekan-u.

– Bilaman, – dedi Vinni Pux uyalibgina.

– Biz «Aha!» deymiz, demak, Kenguru biz bo-
lakay Runing qayerdaligini bilishimizni anglab
oladi. «Aha!» degani «Agar o'rmondan ketib, bosh-
qa qaytib kelmasang, biz bolakay Runing qayer-
daligini aytamiz», degan ma'noni bildiradi. Hozir
esa o'ylagunimcha churq etmanglar.

Vinni Pux burchakka borib olib, o'sha ohangda
«Aha!» deyishga harakat qildi. Gohida bu so'z Qu-
yon aytganday ma'noni bildirsa, ba'zan esa unday
emasday tuyulardi. «Menimcha, bu shunchaki
amaliyot, – o'yladi u. – Qiziq, Kenguru ham buni
tushunish uchun mashg'ulot o'tkazarmikan-a».

– Bu yomon narsa, – dedi Puchuqvoy jinday
xavotirlanib. – Men Kristofer Robin haqida ga-
pirayotgan edim. U esa Kenguru jahldor hayvon-
ligini aytdi, men odatda badjahl hayvonlardan aslo
qo'rqlayman, biroq barchaga ma'lumki, bunday
hayvonlardan biri bolasini yo'qotsa, uning jahl
otiga mingan hayvondan ikki hissa ko'p g'azabi
qo'ziydi. Bu paytda «Aha!» degan so'zni aytish ah-
moqgarchilikdan boshqaga yaramaydi.

– Puchuqvoy, – dedi Quyon qalamni olib, uning
uchini yalarkan, – senda biror naycha yo'qmi?

– Jasur bo'lish rosa qiyin ekan, ayniqsa, zig'ir-
dakkina hayvon bo'lsang, – dedi Puchuqvoy jin-
day xurillab qo'yib.

Berilib yozayotgan Quyon boshini ko'tarib,
og'iz juftladi:

– Chunki sen juda kichkinasan, sayohatga
chiqqanda sendan foyda ko'proq.

Puchuqvoy foyda degan so'zni eshitib, rosa hajajonlanib ketganidan qo'rquv nimaligini unutdi. Quyon Kenguruning asabi qish oylarida buzilishini aytdi. Boshqa payt muloyim va yolg'iz yurishini ham qistirib o'tdi.

– Men haqimda nima deyolasan? – so'radi Vinni Pux xafa bo'lib. – Menimcha, barchaga naf keltira olmayman-a?

– Adashyapsan, – dedi Puchuqvoy uni ovuta.

– Vinni Puxsiz, – dedi Quyon qalamining uchini chiqararkan, – sarguzasht mushkul kechadi.

– Voy! – dedi Puchuqvoy, xayron qolayotgallagini bildirmaslikka urinib. Ammo Vinni Pux burchakka borib olib, o'ziga o'zi «Mensiz o'tishi mushkul! Mana men qanday Ayiqman», dedi.

– Endi esa hammangiz eshiting, – deb yubordi Quyon yozishni tamomlashi bilanoq. Vinni Pux hamda Puchuqvoy og'zi ochilib, berilib tinglashardi. Quyon esa o'qirdi:

Kichkintoy Runi ushlab olish rejasি

1. Asosiy ogohlantirishlar. Kenguru bizdan ko'ra tezroq yuguradi, hattoki Mendan ham.

2. Boshqa ogohlantirishlar. Kenguru bolakay Rudan sira ko'z uzmaydi. Bundan tashqari, uni cho'ntagiga solib olganda ham u ehtiyyotkor.

3. Shu bois, biz bolakay Runi olib qocharotganimizda, tez yugurib ketishimiz dar kor, chunki Kenguru bizdan tezroq yuguradi, mendan ham (menga qarang).

4. Fikr. Agar Ru Kenguruning cho'ntagidan sakrab tushsa, Puchuqvoy unga sakrab kirib

olsa, Kenguru farqni bilmaydi, chunki Puchuqvoy zig'irdakkina jonivor.

5. Runi yoqtirish.
6. Ammo Kenguru boshqa tarafdan birinchi bo'lib kuzatib turgan bo'lsa, Puchuqvoyning kirib olishi amri mahol.
7. 2-ogohlantirishga qarang.
8. Boshqa fikr. Vinni Pux unga juda hayajonlanib so'zlayotganida, u boshqa yoqqa bir daqiqa ko'z tashlashi mumkin.
9. Keyin men Ru bilan birga qochib qolaman.
10. Tezroq.
11. Kenguru bu orada hech narsani sezmay qoladi.



Shunday qilib, Quyon ovoz chiqarib mag'rur-lanib o'qidi. So'ngra hech kim churq etmadı. Og'zini ochib turgan Puchuqvoy bilintirmay xurillab gapistishga chog'landi:

- Keyin-chi?
 - Nima demoqchisan bu bilan?
 - Agar Kenguru sezib qolsa?
 - Unda biz barchamiz «Aha!» deymiz.
 - Uchalamiz hammi?
 - Xuddi shunday.
 - Voy!
 - Nega tashvishlanyapsan, Puchuqvoy?
 - O'zim shunchaki, – derkan Puchuqvoy, – biz buni uchalamiz aytishimiz mumkin. Menga farqi yo'q, lekin «Aha!» so'zini ayta olmasam kerak. Bu so'z yoqimli yangramayapti. Shuningdek, Kenguru qish oylarini yoqtirmasligiga aminmisan?
 - Qish oylari?
 - Uni faqat qish oylarida jahldor bo'ladi, deganding-ku.
 - E, ha-ha, hammasi yaxshi, xavotirlanma. Xo'sh, Vinni Pux, nima qilishing kerakligini tu-shundingmi?
 - Unchalik emas, nima qilishim kerak o'zi? – dedi Vinni.
 - Hm, hozirgina yengilmas Kenguru haqida so'zlamaganmiding? U biror narsani ham belgilamabdi.
 - Voy! Nima haqda gapiryapsan, Shalpan-qulqoq?
 - Sen yoqtirgan biror narsani-da.
 - Unga she'r o'qib berishim kerakmi?
 - To'ppa-to'g'ri.
- Shunday qilib, barchalari Kenguruni qidirgani ketishdi.

Kenguru va Ru o'rmonning qumloq yeri-da tushlik qilib turishardi. Bolakay Ru qumda sakrash mashqini o'tayapti. Sichqonning uyiga sakrab tushib, yana undan qaytib chiqmoqda. Kenguru esa xavotirlana: «Yana bitta sakra, keyin uyga ketamiz, kichkintoyim», dedi unga. Shu paytda ko'kragini ishirib Vinni Pux keldi.

– Xayrli kun, Kenguru.
– Salomatmisan, Vinni Pux.
– Sakrashimni qara, – dedi Ru chiyillab va yana bir sakradi.

– Salom, Ru, kichik oshnam!
– Biz uyga ketay deb turgandik. Xayrli kun, Quyon hamda Puchuqvoy, – so'rashdi Kenguru. Quyon va Puchuqvoy boshqa tarafdan kelib, «Ahvollar qalay, Kenguru, Salom, Ru» deb ona-bola bilan salom-alik qildilar. Ru ham ularga sakrab javob berdi. Barchalari bir-birlariga bir qur boqdilar.

– Voy, Kenguru, – dedi Vinni Pux Quyon unga ikki marotaba imo qilib qo'ygandan so'ng.

– She'riyatga qiziqishingni umuman bilmas ekanman?

– Qiziqish ham gapmi... – javob qaytardi Kenguru.
– Zo'r-ku, – deb yubordi Vinni Pux.
– Ru, shirintoym, yana bitta sakra, keyin uyga ketamiz.

Ru yana sichqonning uyiga yiqilib tushgunicha, jumjilik hukm surdi.

– Lallayma, – dedi Quyon baland ovozda shivirlab uning panjasি ortidan.

– Hozir yolg'iz o'zim kelayotgandim, ozgina she'r mashq qildim. Hozir aytib beraman, xayyolimni bir joyga yig'ib olay...

– Qara-ya! Bo'laqol endi, Ru, azizim, – dedi Kenguru.

- Senga aynan shu she'r yoqadi, ishonaver, – dedi Quyon.
 – Uni yaxshi ko'rib qolasan, – dedi Puchuqvoy.
 – E'tibor bilan tinglashing darkor, – ta'kidladi Quyon.
 – Uning birortasini e'tibordan chetlatib bo'lmas,
 – dedi Puchuqvoy.
 – Eh, ha, – derdi-yu Kenguru hamon Bolakay Rudan ko'z uzmasdi.
 – She'ring qanday boshlanadi, Vinni Pux? – dedi Quyon.

Vinni Pux qisqa yo'talib olgach, og'iz juftladi:

***Aqli kalta ayiq qalamiga
mansub misralar***

*Dushanba kuni Quyoshjon
Meni hayratga soldi:
«Chinmi yoki bu yolg'on,
Nimani qayerdan oldi?»*

*Seshanbada yog'di qor,
Qor ostida nima bor?
Buni hamma biladi,
Har seshanba yog'ar qor!*

*Chorshanba kuni osmon
Bo'yaldi ko'm-ko'k rangga.
Ayiq buni sezmabdi,
Ming afsus, eh, attang-a!*

*Payshanbada muzlama,
Bunda Quyosh izlama.
Agar aqling bo'lmasa,
Vinni Puxni sizlama.*

Juma kuni...

– Ha, shunday, – dedi Kenguru juma kuni nima bo’lganini kutib ham o’tirmay. – Yana bir sakra, keyin rostdan uyga ketamiz, azizim Ru.

Quyon Vinni Puxni shoshil deganday turtib qo’ydi.

– She’riyatdan so’z ochganda, – dedi Vinni Pux tezda, – mana shu yerda daraxtni payqaganmisan?

– Qayerda? – dedi Kenguru. – Bo’laqol, Ru...

– Xuddi mana shu joyda, – dedi Vinni Pux Kenguruning orqa tarafiga ishora qilarkan.

– Yo’q, – inkor etdi Kenguru. – Endi ichkariga kir, Ru azizim, uyga ketamiz, – dedi bolasini charirkank Kenguru.

– Sen shu yerdagi daraxtga qarashing darkor, – dedi Quyon bir yoqdan. – Seni ichkariga ko’tarib qo’ysam maylimi, Ru? – deya u Runi panjasiga oldi.

– Uning ichida qushni ko’rib turibman yoki baliqmi-yey, – dedi Vinni Pux.

– Sen shu yerdan qushni ko’rishing kerak, agar u baliq bo’lmasa, – dedi Quyon.

– Bu baliq ham, qush ham emas, – dedi Puchuqvoy.

– Shunday, – davom etdi Quyon maqsadiga erishay deb.

– Bu keskich yoki qora qorayaloqmi-yey, – dedi Vinni Pux.

– Gap shunda-da, asli nima o’zi? – dedi Quyon.

Shunday qilib axiyri Kenguru bolasidan chalg’iganida Quyon baland ovozda «Ichkariga olg’a, Ru!» dedi va Kenguruning cho’ntagiga Puchuqvoy sakrab kirib oldi. Quyon esa qo’lida Runi ushlagancha mingga qo’yib ketdi.

– Iye, Quyon qani? – dedi Kenguru atrofga alanglab. – Ru, shirintoyim, yaxshimisan?

Puchuqvoy uning cho'ntagidan Runing chiyil-doq ovozini chiqardi.

– Quyon uzoqroqqa ketishi lozim, – dedi Vinni Pux. – Menimcha, u kutilmaganda nimadir qilish haqida o'ylayapti.

– Puchuqvoy-chi?

– O'ylashimcha, Puchuqvoy ham xuddi shu tobda dab-durustdan nimanidir rejalashtiryapti.

– Endi uyga yetib olishimiz kerak, – dedi Kenguru. – Yaxshi qol, Vinni Pux, – deb uch marta katta-katta sakrab ketdi.

Vinni Pux uning ortidan qarab qoldi.

– Shunaqa sakrashni istardim, bu ish ayrimlar-ning qo'lidan keladi, ba'zilar esa aksincha. Nachora shunaqa ekan, – deb qo'ydi Vinni Pux.

Biroq endi Puchuqvoy Kenguruning ahvoli tangligini o'ylardi. Gohida o'rmon bo'ylab uyiga uzoq yo'l yurayotganida u qush bo'lib qolishni orzulardi. Endi esa Kenguruning xaltasida o'zini o'ng'aysiz his etmoqda. Bu sakrash... agar u sodir bo'lsa... Men sira ucholmayman. Kenguru balandga ko'tarilganda Puchuqvoy «Voyyy!» dedi, pastga tushganda esa «Ayyy». U Kenguruning xaltasida ancha vaqt voy-voylab keldi.

Albatta, Kenguru xaltasini ochganda, nima bo'lganini ko'rди. Avvaliga bir daqiqa u qo'rqib ketdi, keyin esa o'zini qo'lga oldi: chunki Kristofer Robin bolakay Ruba hech qanday zarar yetishiga yo'l qo'ymasligini yaxshi bilardi. O'ziga o'zi «Agar ular men bilan hazillashgan bo'lsa, men ham bo'sh kelmayman», dedi.

– Hozir esa, Ru azizim, uxlaydigan payt keldi, – dedi u Puchuqvoyni xaltasidan olib.

– Aha! – dedi zo'rg'a Puchuqvoy o'zining ayanchli sayohatidan so'ng. Bu tuzukkina «Aha!» emasdi va Kenguru e'tibor bermadi.

– Avval cho'milamiz, – dedi Kenguru xushchaqchaq ohangda.

– Aha! – dedi Puchuqvoy yana, boshqalarni qidira atrofga xavotirlanib qaradi. Ammo hech kim yo'q. Quyon esa bu paytda uyida bolakay Ru bilan o'ynar, daqiqa sayin uni yaxshi ko'rib borardi. Kenguru bo'lib qolishni istagan Vinni Pux esa o'rmonning tepe qismidagi qumloq joyda yugurishni mashq qilardi.

– Ikkilanibroq turibman-u, kechqurun sovuq suvga yuvinishning nima yomon tomoni bor ekan? Shunday suvga yuvinishni yoqtirasani, Ru azizim?

Cho'milishni mutlaqo yoqtirmaydigan Puchuqvoy uzoq qaltirab turdi va jasurona, ovozi boricha dedi:

– Kenguru hammasini ochiq-oydin so'zlashning fursati yetdi, deb o'ylayman.

– Qiziq, jajji Ru, – dedi Kenguru cho'milishga suvni tayyorlab bo'lib.

– Men Ru emasman, – dedi Puchuqvoy baland ovozda. – Men Puchuqvoymen!

– Ha, azizim, ha, – dedi u xotirjam. – Puchuqvoyning ovoziga o'xshatyapsanmi tovushingni, xuddi unikiday-a, – deb u javondan katta sariqsovunni oldi. – Endi nima qilamiz?

– Ko'rmayapsanmi? Ko'zing bormi o'zi? Menga qara! – qichqirdi Puchuqvoy.

– Ko'rib turibman, Ru kichkintoyim, – dedi Kenguru yanada qat'iy. – Kecha senga boshqa-larga taqlid qilishni o'rgatgandim. Agar Puchuqvoyni o'xshatsang, Puchuqvoyday o'sasan. Endi esa cho'milishga, meni gapirtirma.

U qayerdaligini anglaguncha o'zini hammomda ko'rди. Kenguru unisovun bilan qattiq ishqalab tozalardi.

– Voy! – yig'ladi Puchuqvoy. – Qo'yib yubor! Men Puchuqvoymen!

– Og'zingni yum, shirintoyim, sovun kirib keta-di, – dedi Kenguru. – Ana! Nima degandim?

– Sen, sen, sen buni ataylab qilding, – dedi Puchuqvoy suvni sachratib, zo'rg'a gapirarkan, keyin esa kutilmaganda og'zi to'la sovun bo'ldi.

– Soz bo'ldi, azizim, ortiq gapirma, – dedi Kenguru. Puchuqvoy quruq sochiqqa artindi. – Ana endi senga dori berish kerak. Keyin uxlaysan.

– N-n-nima, dori? – dedi Puchuqvoy yuragi hapriqib.

– Sening baquvvat o'sishingga ko'makchi dorida, jajjiginam. Kichkina va nozik bo'lib qolishni istamassan, xuddi Puchuqvoyday? Ana bo'ldi!

Shu onda eshik taqillab qoldi.

– Kiring, – dedi Kenguru, Kristofer Robin kirib keldi.

– Kristofer Robin, Kristofer Robin! – qichqirdi Puchuqvoy. – Kenguruga kimligimni aytgin! U meni Ru deb o'ylayapti. Men Ru emasman-ku, to'g'rimi?

Kristofer Robin unga diqqat bilan qarab boshi ni qimirlatdi.

– Sen Ru emassan, chunki hozirgina Ru Qu-yonning uyida o'ynayotganini ko'rdim.

– Juda yaxshi! – dedi Kenguru. – Uni qarang-a!
Shunaqa ham xato qilamanmi-ya.

– Ana bo'lmasa! – dedi Puchuqvoy. – Aytdim-ku
senga, men Puchuqvoymen.

Kristofer Robin yana boshini chayqadi.

– Voy, sen Puchuqvoymassan, – dedi Kristofer
Robin. – Puchuqvoyni yaxshi bilaman, uning ran-
gi boshqacha.

Puchuqvoy hozirgina cho'milganini aytdi, ke-
yin u bunday demasligim kerakmidi, deb og'zini
katta ochib, yana nimadir gapirmoqchiday bo'lib
o'ylanib qoldi. Kenguru dorini qoshiqqa quyib,
keyin uning yelkasiga qoqib qo'ydi.

– Puchuqvoy emasligingni bilardim. Kim ekan
bu deb hayron edim, – dedi Kenguru.

– Balki Vinni Puxning qarindoshlaridandir. Ji-
yanimi, tog'asimi yoki nimadirmi? – ta'kidladi
Kristofer Robin.

Kenguru nima bo'lsa, hammasiga roziday edi va
uni biror ism bilan chaqirishlari kerakligini aytdi.

– Men uni Putel, deb atayman, – dedi Kristofer
Robin. – Qisqa qilib, Henri Putel.

Ular shu ismgaga ahd qilishlari bilanoq, Henri
Putel Kenguruning qo'lidan chiqib, yerga sakrab
tushdi. Uning baxtiga Kristofer Robin eshikni
ochiq qoldirgan ekan.

Henri Putel-Puchuqvoy ilgari sira ham bunday
tez yugurmagan edi, xuddi hozirgiday, u uyiga
yaqin qolguncha yugurishda davom etdi. Uzoq
yo'l bosgach, yugurishdan to'xtadi hamda uyi-
ning yonida biroz dam oldi, keyin yana o'zining
qulay va yoqimli rangiga kirib oldi.

Shunday qilib, Kenguru va Ru o'rmonda qo-
lishdi. Har seshanba kungi vaqtini Ru katta

do'sti Quyon bilan o'tkazardi. Xuddi shu kunda Kenguru qadrdon do'sti Vinni Pux bilan birga bo'lib, unga sakrashni o'rgatardi. Puchuqvoy ham seshanba kuni Kristofer Robin bilan birga. Shunday qilib, ularning barchasi yana baxтиyor edilar.

SAKKIZINCHI BOB

KRISTOFER ROBINNING SHIMOLIY QUTB «IKSPITITSIYASI»GA BOSHCHILIK QILGANI HAQIDA

Ajoyib kunlarning birida Vinni Pux o'rmon tepaligida yashaydigan oshnasi Kristofer Robinning yoniga lapanglab bordi. O'sha kuni u nonushtaga marmaladli oddiy yegulik ustiga asal surib egandi. Momiqvoy birdan yangi qo'shiqni o'ylab topdi. Qo'shiq mana bunaqa boshlandi:

– Hey, mana buni hayot deydilar...

Kuylay-kuylay uzoqqa yetganida, boshini qashladи va o'zicha fikrladi: «Qo'shiq-ku zo'r boshlandi, lekin keyingi misra qanday bo'lar-kan-a? – u kuylashda davom etdi. – Hey, – dedi ikki yoki uch marotaba. Lekin bu unga yordam bermadi. – Agar men Ayiqning hayoti uchun salom, deya kuylasam, balki bu yaxshiroq chiqar, – o'yladi u. Shunday qilib, u mana shunaqa kuyladi... biroq ashula o'xshamadi. – Juda yaxshi, endi birinchi qatorini yana ikki marta aytaman, balki uni tez aytsam, uchinchi hamda to'rtinchi qatorlarini o'ylab o'tirmasdan ham topib qo'yaman, qarabsizki, juda soz qo'shiq chiqadi. Ana endi boshladik:

Hey, mana buni hayot deydilar!

Hey, mana buni hayot deydilar!

Mayli, yog'sin yomg'ir yo qor,

Chunki burunchamda ko'p asal bor!

*Parvo qilmam issiq kunlarga,
Asal to'ladir mening panjamga!
Hey, mana buni hayot deydilar!
Hey, mana buni hayot deydilar!*

Qo'shig'idan ko'ngli to'lgan Vinni Pux o'rmonning tepasigacha kuylab bordi. Kristofer Robin eshigining tashqarisida katta etigini kiyib o'tiribdi. Katta etikni ko'rishi bilanoq, Vinni Pux tushundi-ki, sarguzasht boshlanyapti. So'ngra u panjasining orqa tarafi bilan burnidagi asalni artdi va xuddi bি-
rор narsaga shay turganday o'zini epaqaga keltirdi.

– Xayrli tong, Kristofer Robin, – darrov so'rashdi u.
– Salom, Momiqvoy. Manavi etigimni kiyolma-yapman.

– Chakki bo'pti-yu, – dedi Vinni Pux.
– Meni suyab tura olasanmi, chunki etigim ip-
larini qattiq tortganimda orqaga yiqlib tushishim
mumkin.

Vinni Pux o'tirib, oyog'ini yerga tiradi va Kris-
tofer Robinning orqa tarafidan mahkam ushladi,
Kristofer Robin etigini qattiq tortdi, tortaverdi,
tortaverdi, axiyri uni kiyib oldi.

– Mana yetib keldik, – dedi Vinni Pux. – Endi
nima qilamiz?

– Barchamiz ekspeditsiyaga chiqamiz. Rahmat
senga, Vinni Pux, – javob berdi Kristofer Robin
o'rnidan tura hamma joyini to'g'irlab olarkan.

– Ikspititsiyaga boramiz? – dedi Vinni Pux
qiziqib. – Men bunaqa joyga bormaganman. Iks-
pititsiyaga qayerga boramiz?

– Ekspeditsiya, qari tentak. «E» harfi bilan.
– Ha-ya bilaman, – dedi Vinni Pux o'zini bi-
lag'on tutib.


- Biz Shimoliy qutbni ochishga ketyapmiz.
- Qoyil! Shimoliy qutub nima o'zi? – dedi Vinni Pux yana.
- U hozirgina sen kashf qilgan narsadir, – dedi Kristofer Robin beixtiyor, o'ziga ishonqiramay.
- Shunday de! Tushundim. Ayiqlar kashf etishga ustami?
- Shu ham gap bo'ldi-yu, bo'lmamasam-chi? Quyon hamda Kenguru bundan mustasno emaslar. Demak, ekspeditsiyaga olg'a. Ekspeditsiya degani shunday ma'noni bildiradi: har bir kishining olis manzilidir bu. Sen, yaxshisi, hammani sha'y turishga chorla, men esa ungacha qurolimni ko'zdan kechiraman. Shuningdek, barcha zarurat narsalarni unutmasligimiz darkor.
- Nimani olish kerak?
- Yeguliklarni.
- Ha! – dedi Vinni Pux xursand bo'lib. – Men biror zarur matohmi, deb o'ylabman. Endi ularga gapingni aytaman, – deya Vinni Pux odimladi.
- Birinchi uchratgan odami Quyon bo'ldi.
- Salom, Quyon, o'zingmisan? – dedi u.
- Kel, o'zimizni bilmaganga solamiz. Go'yo bu menmasman, bilmaganga olib gaplash, – dedi Quyon.
- Senga gapim bor.
- Unga yetqazib qo'yaman.
- Biz Kristofer Robin bilan ikspititsiyaga bormoqchimiz!
- Nimada boramiz?
- Kemada shekilli, – dedi Vinni Pux.
- Voy, ajoyib-ku!
- Nimasini aytasan. Biz qutub va yana allaqanday narsani kashf etmoqchimiz. Balki qurutmi? Xullas, nima bo'lsa ham kashf etmoqchimiz.

– Biz deganing, biz-da, shundaymi? – so‘radi Quyon.

– Shunday. O‘zimiz uchun yemishga zarur narsalarni olamiz ham. Ularni yegimiz kelib qolgan-da asqotadi. Hozir borib Puchuqvoyga aytaman. Kenguruga o‘zing yetkazib qo‘yarsan?

U Quyonning yonidan o‘tib, Puchuqvoynikiga shoshdi.

Puchuqvoy uyi oldida baxtiyor holda qoqi o‘tni puflab o‘tirardi. Qoqi o‘tning ochilganidan, keyingi yil yana bo‘lishiga, ba’zan yerdan unib chiqmasa-chi, deya hayratlanib o‘y surardi. U endigina bu o‘t yo‘qolib ketadi, deb o‘ylab, uni eslab qolishga urinmoqda edi. Shuningdek, uni kerakli narsamas, deb turganda Vinni Pux ke-lib qoldi.



– Hoy, Puchuqvoy, hammamiz ikspititsiyaga ketyapmiz, yegulik ovolishimiz kerak. Bir nimani kashf qilarkanmiz.

– Nimani kashf qilamiz, – so‘radi bezovtalanib Puchuqvoy.

– E, bir nimani-da.

– Yomon narsamasmi ishqilib?

– Kristofer Robin boshqa hech nima demadi. Unda faqat «e» harfi bor dedi.

– Menimcha, bu uning egni bo‘lsa kerak, – dedi Puchuqvoy hayron qolib. – Balki eshikdir. Agar Kristofer Robin borayotgan bo‘lsa, men ikkilanib o‘tirmayman.

Oradan hech qancha vaqt o‘tmay, ular o‘rmonning tepasiga yig‘ilib olishdi va «ikspititsiya» boshlandi. Birinchi bo‘lib Kristofer Robin hamda Quyon keldi. Keyin Puchuqvoy hamda Vinni Pux, Kenguru xaltasida Ru bilan birga, Ukki, Xo‘tikvoy keldi, eng oxirida esa uzoq yo‘ldan Quyonning barcha do‘satlari hamda qarindoshlari tashrif buyurdilar.

– Ularni men chaqirganim yo‘q, – dedi Quyon dangal. – Hozirgina kelib turishibdi, o‘zi hamisha shunday qilishadi. Xo‘tikvoydan so‘ng qadam tashlayveradilar.

– Bu xavotirli, demabmidim sizlarga. Vinni Pux aytgan ikspoga borishni istamayman, – dedi Xo‘tikvoy. – Faqat mengina majburiy keldim. Lekin shu yerdaman; bordi-yu biz iksponi tugatsak, nima haqda gaplashamiz. U holda eng oxirida yurishimga izn beringlar. Agarda yerga o‘tirib, dam olishni xohlaganimda, Quyonning barcha do‘satlari va qarindoshlarini u yoqdan bu yoqqa ag‘dar-to‘ntar qilishimga to‘g‘ri keladi. Qarabsiz-

ki, ikspo-mikspodan asar ham qolmaydi. Mana shuni ma'lum qilmoqchiydim.

– Xo'tikvoyning fikrini tushunib turibman, – dedi Ukki. – Mendan so'rasangiz...

– Kamina sizlarga savolsiz yuzlanmoqda, – dedi Xo'tikvoy. – Shimoliy qutbni ko'rishimiz yoki shu yerda shodon o'ynashimiz, chumoli inining oxirgi qismida yong'oq hamda do'lana terishimiz mumkin. Menga farqi yo'q!

Shu on yo'lning tepe qismida o'q ovozi eshitildi.

– Qani kelinglar! – chaqirdi Kristofer Robin.

– Bo'laqolinglar! – chaqirdi Ukki.

– Ketyapmiz, – dedi Shalpanqulqoq. – Ketishim kerak, – derkan u Kristofer Robin bilan ikspititsi-yaga chiqishga shoshilardi.

– Juda soz, ketyapmiz. Faqat mendan o'pkala-manglar, – dedi Xo'tikvoy.

Shunday qilib, barcha qutbni kashf etishga ketishdi. Yo'l-yo'lakay ularning oyoqlari ham, og'zi ham timmadi. Faqat Vinni Puxdan tashqari, chunki u kuylab ketdi.

– Birinchi she'r, tingla, – dedi u Puchuqvoyga, qo'shig'ini boshlashga shaylana.

– Qanaqa birinchi she'r?

– Qo'shig'imniki.

– Qanaqa qo'shiq?

– Mana bunaqa.

– Qaysi?

– Agar eshitsang, bilasan, Puchuqvoy.

– Tinglamayotganimni qanday bilishing mumkin?

Vinni Pux bu savolga javob bermay, kuylay ketdi.

*Hammamiz yo'lga otlandik,
Ukki, Puchuqvoy va Quyon,
Kashf etishga yo'lga chiqdik,
Xo'tikvoy, Vinni Pux va Robin.*

*Va Quyonning qarindoshlari
Bizga hamroh bo'lib kelmoqda.
Barchasida bor yeguliklar,
Shamol kabi uchib yelmoqda.*

– Jim! – dedi Kristofer Robin Vinni Puxga o'girilib, – biz xavfli yerga yetib keldik.

– Jim! – dedi Vinni Pux tezda Puchuqvoyna o'girilib.

– Jim! – dedi Puchuqvoy Kenguruga qarab.

– Jim! – dedi Kenguru Ukkiga, Ru esa unga bir necha marotaba «Jim» dedi tez-tez.

– Jim! – dedi Ukki Xo'tikvoyga.

– Jim! – dedi Xo'tikvoy dahshatli hayqirib, Quyonning barcha qarindoshlari hamda do'stlariga, ular ham «Jim!» deyishdi shoshibgina, bir-birlariga yer ostidan oxirgi sheriklariga etguncha.

Vanihoyat do'st-qarindoshlarning kenjasiga «ikspititsiya»chilarning «Jim!» degan so'zi yetib borganda u bundan xafaroq bo'ldi. U yerning yorig'iga boshini tiqib, toki xavf daf bo'limguncha o'sha yerda ikki kun qolib ketdi. So'ng uyiga shoshgancha chopdi. Uyida xolasi bilan yashay boshladи. Uning ismi Aleksandr Bitl edi.

Qolganlar esa qirg'og'ini katta toshlar qurshagan, shovqin solib oqadigan ariqqa yetib kelishdi. Kristofer Robin uning naqadar xavfli ekanini bir qarashda bildi.

– Pistirma uchun qulay joy ekan, – tushuntirdi u.

– Pista, qanaqa pista? – pichirladi Vinni Pux Puchuqvoyga.

– Qadrdomim Vinni Pux, pistirma nimaligini bilmaysanmi? – hayron qoldi Ukki.

– Ukki, – dedi Puchuqvoy uni qattiq ko‘zdan kechirarkan, – Vinni Pux ajoyib va o‘ziga xos pichirladi, menimcha bundan kamchilik qidirishga hojat yo‘q.

– Pistirma, degani syurprizning bir turi.

– Lekin ba’zan pista ham... – dedi Vinni Pux.

– Vinni Puxga tushuntirmoqchi bo‘lganim pistirma, syurprizdir, – bidirladi Puchuqvoy.

– Agar odamlar senga kutilmaganda sakrab qolishsa, bu pistirma deyiladi, – ta’kidladi Ukki.

Endi pistirma nima ekanini bilib olgan Vinni Pux bir kuni daraxtdan yiqilib tushganida pistirma duch kelganini ma’lum qildi. O’shanda terisiga yopishgan tikonlarni uch kun olib tashlaganini ham aytди.

– Biz pastirma haqida gapirmayapmiz, – dedi Ukki ozgina achchig‘i kelib.

– To‘g‘ri, – ma’qulladi Vinni Pux.

Endi «ikpititsiya»chilar ariqning tepasidan ehtiyyotkorona o‘tdilar, toshdan toshga sakrab, kichkina yo‘ldan yurgandan so‘ng, ikki tarafga bo‘lin-gan sohilga yetib kelishdi. Sohilda maysalar rosa ko‘p bo‘lgani uchun ular bemalol dam olishlari mumkin edi.

Buni ko‘rishi bilanoq, Kristofer Robin «To‘xtanglar!» deb yubordi. Barcha to‘xtab, yerga o‘tirib, pi-cha hordiq chiqardi.

– O‘ylashimcha, – dedi Kristofer Robin, – hozir barcha yegulikni yeb tugatishimiz zarur, chunki hammasini ko‘tarib ketolmaymiz.

– Nimani yejish kerak? – so‘radi Vinni Pux.

– Nimani olgan bo'lsak, o'shani, – dedi Puchuq-voy ishga kirishib.

– Bor ekansan-ku, – deya Vinni Pux quvonib pitirlab qoldi.

– Hammangiz qorin g'amini yeganmisiz? – so'radi Kristofer Robin og'zini to'ldirib olib.

– Menden tashqari, – javob berdi Xo'tikvoy. – Odatdagiday, – deb qo'shimcha qildi u g'amgin termularkan.

– Menimcha, faqat sengina qushqo'nmasga o'tirib oglansan?

– Bunga shubham yo'q. Voy! – deb Vinni Pux o'rnidan turib, uning orqasiga qaradi. – To'g'ri aytibman, xuddi shunday.

– Rahmat senga, Vinni Pux, – degancha Xo'tikvoy Vinni Puxning joyidan kesib o'tib, chaynalishni boshladи.

– Yalpayib o'tirishdan ne naf, – deb yura ketdi u chaynalayotgan bo'lsa-da. – Birni ko'rib fikr qil, birni ko'rib shukr! Shunda oq va qorani ajratishing osondir.

Tushlikni tugatishi bilanoq Kristofer Robin Qu-yonga shivirladi. Quyon: «Ha, ha, albatta» degach, ular ariq tepalab kichik yo'ldan birga odimlashdi.

– O'raga sichqon tushdi – guldur-gup, – dedi Kristofer Robin.

– Kelishdik, – degan Quyonning chehrasi jiddiy tus oldi.

– Hayronman, Quyon, menimcha, sen ham bil-maysan, Shimoliy Qutb nimaga o'xshaydi o'zi?

– Durust, – dedi Quyon mo'yovlarini silab qo'yarkan, – Menden so'rayapsanmi?

– Bittasini bilardim, ammo unutib qo'ydim, – shartta dedi Kristofer Robin.

– Juda qiziq narsa edi, ammo mening ham esimdan chiqdi, – deya g‘alvadan qutulib qo‘ya qoldi Quyon.

– Menimcha, u yerga tiqib qo‘yilgan qutb bo‘lsa kerag-ov?

– Aniq ayta olaman, qutb deb atalsa, demak, bu qutb bo‘ladi. Xo‘sish, o‘ylab ko‘rsam, u yerga tiqilgan bo‘lishi kerak, shundaymi, chunki uni yerga qadamasdan qayerga tiqish mumkin? – dedi Quyon.

– To‘ppa-to‘g‘ri, dilimdagini topding.

– Gap shundaki, u qayerga tiqilgan ekan o‘zi?

– Mana shuni qidiryapmiz-da axir, – dedi Kris-tofer Robin.

Ular boshqa tarafga ketishdi. Puchuqvoy biqiniga boshini qo‘yib xotirjam uxlari, Ru ariq-da yuzini va panjalarini yuvmoqda, Kenguru esa hammaga bolasining ilk bora mustaqil yuvina-yotganini g‘ururlanib aytardi. Ukki Kenguruga uzundan-uzun latifa so‘zlashga bel bog‘lagandi. Undagi ensiklopediya hamda rododendron singari so‘zlarni Kenguru ilgari sira ham eshit-magandi.

– Hamma yuvinsa, men-chi, – dedi Xo‘tikvoy zorlanib. – Bu yangicha narsa qulqoqning u yog‘idan kirib, bu yog‘idan chiqib ketadigan saf-sataday go‘yo, nima deding, Vinni Pux?

– Xo‘sish, fikrimcha... – dedi Vinni Pux.

Biz Vinni Puxning nimani o‘ylaganini bilol-maymiz, chunki shu tobda to‘satdan Runing chinqirig‘i eshitildi. Unga qo‘shilib, Kenguruning ayyuxannos solgani ham.

– Yuvinish uchun juda ko‘plik qiladi, – dedi Xo‘tikvoy.

– Ru yiqilib tushdi, – baqirdi Quyon. Kristofer Robin va Quyon Runi qutqarish uchun ikkilanib o'tirmasdan suvga otilishdi.

– Suzishimga qarang! – chiyilladi Ru suvdan turib, u sharshara tomon suzib borardi.

– Yaxshimisan, Ru azizim? – dedi Kenguru xavotirlanib.

– Ha! Qarang suz... – degancha sho'ng'ib, keyingi ko'lmakdan narigi tarafga o'tdi.

Barcha unga yordam berish uchun yeng shi-mardi. Kutilmaganda uyg'onib qolgan Puchuqvoy tepaga-pastga sakrab: «Hay, hay, eshitinlar» deb shovqin soldi. Ukki «bunday kutilmagan hodisa-da, eng asosiysi, cho'kishda – boshni suv ustida ushlab turish kerak»ligini bayon qildi. Kengu-ru esa yolg'iz o'zi sohilda yugurib: «Ishonching komilmi, Ru, bolajonim, yaxshimisan?» dedi qan-day suvda bo'lmasin, «Qarang, men suzyapman!» deb javob berayotgan Ruga. Xo'tikvoy aylanib olib, dumini Ru yiqilib ketgan birinchi ko'lma-ka osiltirdi va o'ziga o'zi: «Barchasi yuvildi, endi dumimni ushla, kichkintoy Ru, keyin hammasi yaxshi bo'ladi», dedi. Kristofer Robin hamda Qu-yon Xo'tikvoyni ortda qoldirib, oldinga qarab jar solib ketardilar.

– Hozir, Ru, ketyapman, – qichqirdi Kristofer Robin.

– Qo'ling yetadigan biror narsani ushlab ol, – baqirdi Quyon.

Lekin Vinni Pux nimadirni ushlab olgandi. Rudan ikki ko'lmak pastda u uzun tayoqni qo'liga olvolgandi. Kenguru tayoqning uchini ushladi va pastroqdagi ariqning o'rtafiga uning ikkala uchi-ni mahkamlashdi. «Qarang, men suzyapman!»

deb arang gapirayotgan Ru tayoqqa urilib, chir-mashdi.

– Suzganimni ko'rdingizmi? – chiyilladi Ru ha-yajonlanib, Kenguru unga tanbeh berib, uni artib quritgunga qadar.

– Vinni Pux, nima qilganimni ko'rdingmi? O'sha qilgan ishimni suzish deydilar. Quyon, nima qilganimni ko'rdingmi? Suzdim. Salom, Pu-chuqvoy! Eshityapsanmi, Puchuqvoy! Men nima qildim? Suzdim! Kristofer Robin, sen-chi, ko'r-dingmi nima qilganimni...

Ammo Kristofer Robin uni tinglamasdi. Uning diqqati Vinni Puxda edi.

– Vinni Pux, bu tayoqni qayerdan topding?

Vinni Pux qo'lidagi tayoqqa boqdi.

– Uni hozirgina topib olgandim. Nafi tegib qolar, deb o'yladim, – dedi Momiqvoy.

– Vinni Pux, – Kristofer Robin tantanavor ohangda, – ekspeditsiya tugadi. Sen Shimoliy qutbni topding!

– Voy! – dedi Vinni Pux hayratlanib.

Xo'tikvoy esa barcha uning yoniga qaytib kel-ganida ham suvga tushib o'tirardi.

– Birortangiz Ruga tezroq dumimni ushlashini ayting, dumim muzlab ketdi. Men buni eslatmoq-chimasman, lekin shunchaki eslatdim. Shikoyat qilmoqchimasman-u, lekin shunday. Dumim sovqotdi.

– Men bu yerdaman! – chiyilladi Ru.

– Xah, buyoqdamiding.

– Suzganimni ko'rdingmi?

Xo'tikvoy dumini suvdan chiqarib, u yon bu yonga silkitdi.

– Bechora Xo‘tikvoy! Seni bajonidil artib qo‘yaman, – dedi Kristofer Robin dastro‘molini olib, uni arta.

– Rahmat, Kristofer Robin. Yolg‘iz sen dum borasida qayg‘urasan. Anavilar esa boshqalarga nima bo‘lganini o‘ylamaydilar ham. Ular tasavvurga ega emaslar. Dum ular uchun dum emas, balki orqadagi kichkina alohida bo‘lakcha.

– Qo‘ysang-chi, Xo‘tikvoy, – dedi Kristofer Robin yanada qattiqroq ishqalab. – Qalay, yaxshimi?

– Dumga o‘xshayapti shekilli.

– Salom, Xo‘tikvoy, – dedi Vinni Pux tayog‘i bilan ularning yoniga kelib.

– Vinni Pux, salom. So‘raganing uchun rahmat, men buni bir-ikki kunda yana qo‘llayman, – dedi Xo‘tikvoy.

– Nimani qo‘llaysan? – so‘radi Vinni Pux.

– Nima haqida suhbatlashgan bo‘lsak, o‘shani.

– Men hech narcha haqida gaplashmayotganim, – dedi Vinni Pux savolomuz nigohda.

– Yana xatoga yo‘l qo‘ydim. Dumimga achnayotganiningni,sovuqdan ko‘karib ketganim va biror yordam berishing haqida aytyapsanmi, debman?

– Yo‘q, bu men emasdim, – dedi Vinni Pux. Biroz o‘ylangach, so‘ngra shodlanib: – Balki bu boshqa birortasidir.

– Yaxshi, unday bo‘lsa, uni ko‘rganingda mening tashakkurimni yetkaz.

Vinni Pux Kristofer Robinga xavotiromuz qarab qo‘ydi.

– Vinni Pux Shimoliy qutbni topdi. Ajoyibmasmi?

Vinni Pux soddagina ko‘rinardi.

– Bu nimasi? – so‘radi Xo‘tikvoy.

- Ha, – dedi Kristofer Robin.
- Bu biz qidirayotgan narsami?
- Xuddi shunday, – javob qaytardi Vinni Pux.
- Ana xolos! – dedi Xo'tikvoy. – Yaxshi, nima bo'lganda ham, yomg'ir yog'mabdi.

Ular tayoqni yerga tiqishdi va Kristofer Robin unga ma'lumotnoma ilib qo'ydi:

**SHIMOLIY QUTB VINNI PUX TOMONIDAN
KASHF ETILDI. VINNI PUX UNI TOPDI**

Keyin hammalari uyga qaytishdi. O'ylaymanki, lekin aniq emas, Ru issiq suvda cho'milib, to'g'ri yotog'iga kirgan. Vinni Pux esa uyiga borib, qilgan ishidan juda mag'rurlangan, o'zini o'nglab olishga jinday nimadir topdi.

TO'QQIZINCHI BOB

**PUCHUQVOYNING UYINI
SUV BOSIB QOLGANI HAQIDA**

Yomg'ir yog'di, yomg'ir yog'di va yana yog'averdi. Puchuqvoy o'ziga o'zi hayotida uch yoki to'rt marotaba bo'lsayam, buncha yomg'irni ko'rmaganini aytdi. Kunlar ketidan kun o'tsa hamki, yomg'ir quyaverdi.

– Hech bo'lmasa, – o'yladi u, derazadan tashqariga boqib, – yomg'ir yog'ayotganida Vinni Pux yoki Kristofer Robinnikida, yo Quyonning uyida bo'lganimda, bu yerda yolg'iz o'tirib, qo'l qovushtirib, yomg'ir tinishini kutgandan ko'ra hamma bilan birga vaqt o'tkazardim.

So'ng u ko'z oldiga Vinni Puxni keltirib, unga savol berdi: «Biror marta shunaqa ko'p yomg'irni ko'rganmisan, Vinni Pux?» va Vinni Pux javob berdi: «Bu xavfli emasmi, Puchuqvoy?» Puchuqvoy esa: «Hayronman. Kristofer Robinning yo'li qay ahvolda ekan?» Vinni Pux ham dedi: «Bunaqa havoda sho'rlik qari Quyon toza ivib ketganiga shubham yo'q». Bunday suhbat qurib, zavqlaman. Aslida esa suv bosganchalik hayajonlantirmaydi, ayniqsa, bu holatni yolg'iz qarshi olganing chatoq-da.

Rosa zavqli jarayon edi. Puchuqvoy iskagan kichkina darcha tomchiga aylandi, u sachratib yurgan kichkina suv ko'lmaklari to'planib, daryo bo'lgandi. Daryo ular baxtiyor o'ynagan tepalik orasida edi, u o'zining karavotidan boshqa ham-

ma joyga tarqaldi, keyin Puchuqvoy endi o'zining karavotiga ham suv yetib borishini bilib qoldi.

– Kichkina jonivorlarni suv bosib qolishi biroz vahimali ekan, – deya xavotirlandi u. Kristofer Robin bilan Vinni Pux daraxtga chirmashib qochib qolishi mumkin. Kenguru ham sakray-sakray qochib ketadi, Quyon chuqur qazib yashirinadi, Ukki uchib ketadi, Xo'tikvoy baland ovozda hangrab, xavfdan oldin juftakni rostlab qoladi. Men esa hamma joyim shalabbo bo'lib, na oldinga va na orqaga qilt eta olaman.

Yomg'ir rosa yog'di, har kuni suv ko'tarildi, Puchuqvoyning derazasigacha yetay deb qolgandi... U esa hamon nima qilarini bilmasdi.

– Mana, Vinni Pux, – dedi o'ziga, – Vinni Puxning umuman kallasi «bum-bum» ishlamasa hamki, ammo u sira pand yemaydi. U ahmoqona harakatlar qilsa-da, foydali bo'lib chiqadi. Ukki ham. Uning aqli yo'q, lekin ko'p narsalardan xabardor. U suv bosganida qanday yo'l tutmoqlikni biladi. Quyonni olaylik: qo'liga kitob ushlama-gan, biroq hamisha aqlli rejalarни tuzadi. Kenguru esa aqlli emas, lekin Rudan juda xavotirlanadi va o'ylab o'tirmasdan yaxshi ishlarni bajradi. Xo'tikvoy juda omadsiz, lekin nima bo'lgan taqdirda ham bunga e'tibor bermaydi. Lekin hayronman, Kristofer Robin nima qiladi?

Keyin u birdan Kristofer Robin aytib bergen hikoyani eslab qoldi. Hikoyada bir kishi orolda qolib ketib, shisha ichiga qog'ozni solib, uni den-gizga otgan ekan. Puchuqvoy ham xuddi shunday qiladi. U yozuvli qog'ozni shishaga joylab, suvg'a otishga ahd qildi, zora, kimdir uni qutqarishga kelib qolsa!

U derazadan nari ketib, uyini tintishga tushdi, hali hamma narsa suvgaga g'arq bo'lmagandi. Nihoyat qalam hamda kichkina quruq qog'ozni hamda tiqinli shishani topdi. Qog'ozning bir tarafiga yozdi: «Yordam bering! Puchuqvoy (Men)» boshqa tarafiga esa: «Bu men Puchuqvoymen, yordam bering!» deb yozdi.

Keyin u qog'ozni shishaga tiqib, tiqinni iloji boricha yaxshilab mahkamladi. Shishani oynadan pastga egilib, qo'lidan kelgancha uzoq-roqqa otdi: «Shpaql!» Biroz fursatdan so'ng shisha yana suv sathiga chiqib qoldi. So'ng uning asta oqib ketayotganini ko'zi og'rigunicha kuzatdi, gohida suvdagi narsani shisha, deb o'ylagan bo'lsa, gohi shunchaki to'lqincha degan xayolga bordi. Oxiri u shishani o'zidan boshqa kimsa ko'rmasligini bildi.

– Ana endi, kimdir nimadir qilishi kerak, umid qilamanki, yaqinda buni amalga oshirishadi. Hech kim yordam bermasa, qo'limdan kelmaydigan ish, ya'ni suzishimga to'g'ri keladi. Shunday ekan, ulardan umid qilib qolaman. Keyin chuqr xo'rsinib dedi: «Qaniydi hozir Vinni Pux yonimda bo'saydi, ko'pchilikka nima yetsin».

Yomg'ir yog'ayotganida esa Vinni Pux uxlardi. Yomg'ir yog'averdi, yog'averdi va yana yog'averdi, u esa uxlayverdi, uxlayverdi, uxlayverdi. O'sha kuni u juda charchagandi. Esingizdam, u qanday qilib Shimoliy Qutbni kashf etgani? U shundan g'ururlanib, Kristofer Robindan aqli kalta ayiq kashf etishi mumkin bo'lgan yana biror qutb mavjudligi haqida so'radi.

– Mana, Janubiy Qutb, yana Sharqiy Qutb, shuningdek, G'arbiy Qutb ham bor. Lekin odam-

lar bu mavzuda so'zlashni yoqtirmaydilar, – de-gandi Kristofer Robin.

Vinni Pux buni eshitib, rosa hayajonlanib ket-di va ular Sharqiy Qutbga ekspeditsiya qilishlari lozimligini taklif etdi. Biroq Kristofer Robin Ken-guruga bir nima hozirlab qo'ygandi. Shunday qilib, Vinni Pux Sharqiy qutbni yolg'iz o'zi kashf etishga yo'l oldi. Uni kashf qildimi-yo'qmi, esidan chiqdi, lekin uyiga qaytganida juda charchagan-di, yarim soatda kechki ovqatini yeb, so'ng bir zumda stulida uxbab qoldi. Shu zaylda uxlayverdi va uxlayverdi va yana uxlayverdi.

Uyqusida tush ko'ra boshladi. U Sharqiy qutb-damish. Bu juda sovuq qutb bo'lib, qori va muzi bilan ham o'ziga xos sovuq edi. Yo'lida uxbab yot-gan asalari uyasini topib oldi. Biroq uning oyoq-larida xona yo'q emish. Shuning uchun uni tash-qarida qoldirdi. Yovvoyi Olabo'jilar ham Sharqiy qutbda yasharkanlar, ular nimanidir kemirar-dilar, «Voy!» deb Vinni Pux uyg'onib ketganida uning oyoqlari sovqotib qolgan ekan. Uyg'ongach, u stulda o'tirsa-da, oyoqlari suvdaligi va uning atrofini butunlay suv o'rabi olganini ko'rdi!

Eshigini ochib, tashqariga boqdi...

– Vaziyat jiddiy-ku, zudlik bilan qochib qo-lishim kerak, – dedi Vinni Pux.

Keyin u katta idishdagi asalini olib, daraxti-ning katta shoxiga chiqib oldi. Xo'sh, suvdan an-cha tepada bo'lsa-da, yana pastga tushib, bosh-qa idishdagi asalini olib, birma-bir asal idishla-rini daraxtiga tashidi... So'ngra suvdan qochib bo'lganidan keyin, Vinni Pux shoxda oyoqlarini osiltirib, o'ynatib o'tirar, uning yonida esa o'nta idish asal qatorlashib turardi.

Ikki kun o'tgach ham, Vinni Pux oyoqlarini shoxda o'ynatib o'tirar, yonida esa to'rtta idish asal qolgandi...

Uch kun o'tsa-da, Vinni Pux shoxda oyoqlarini o'ynatib o'tirar, yonida atigi bitta idishda asal qolgan...

To'rt kun o'tgach esa Vinni Pux...

To'rtinchi kuni ertalab Puchuqvoyning shishasi uning pastidan suzib o'tdi, «Asal!» deb yuborgan Vinni Pux suvgaga sakradi. Shishani tutib olib, yana daraxtga chiqdi.

– Jin ursin! – dedi Vinni Pux shishani ocharkan.
– Hamma joy nam. Manavi qog'oz nima ekan?

U qog'ozni qo'lliga olib, ko'zdan kechirdi.

– Bu xat-ku, hm-m. Manavi harf «P» harfi, buniisi ham, unisi ham. «P» harfi «Vinni Pux» degan ma'noni bildiradi. Demak, bu menga yo'llangan



juda muhim xabardir, lekin uni o'qiy olmayman. Kristofer Robin, Ukki yo bo'lmasa, Puchuqvoyni topishim lozim, ushbu aqli o'quvchilardan biri xatda menga atab nima yozilganini o'qib beradi. Ammo suza olmayman-ku, voy-dod!

Keyin uning miyasiga bir fikr kelib qoldi. «Aqli kalta ayiqligimni hisobga olib aytganda, bu juda yaxshi fikr», degancha o'ziga o'zi sayray ketdi:

– Agar shisha suza olsa, demak, xum ham suzadi, men xumning eng tepasiga o'tirib olishim mumkin, agar u juda katta bo'lsa, albatta.

Shunday qilib u eng katta xumini olib, uning ichiga shishani soldi.

– Barcha qayiqlarga nom qo'yiladi, shunday ekan, men o'zimnikiga Suzayotgan Ayiq, deb nom beraman, – shu so'zlarni ayta, u xumni suvgaga otdi va ketidan uning ustiga o'zi o'tirib oldi.

Hech qancha vaqt o'tmasdan, Vinni Pux hamda Suzayotgan Ayiqning qay biri tepadaligi noay-on bo'ldi. Biroq bir yoki ikki har xil harakatlardan so'nggina, Suzayotgan Ayiq pastda, Vinni Pux unga o'tirib olib, oyoqlari bilan eshdi.

Kristofer Robin o'rmonning eng baland joyida yashaydi. Yomg'ir yog'ar, yog'ar va yana yog'a-verardi. Lekin suv uning uyigacha yetib kelolmadidi. Pastga, vodiyga boqib, atrofdagi suvni ko'rish zavqliroq, biroq yomg'ir rosa quyganidan, u uy ichida ancha vaqt qolib ketdi. O'shanda ancha narsalar borasida fikrladi. Har kuni ertalab u tashqariga soyaboni bilan chiqib, yomg'ir suvi to'plangan joyga tayoqni qo'yib keldi. Ertasiga ertalab esa o'sha yerdagi tayoqdan asar qolmadi. Shunday qilib, yomg'ir suvining ko'lmagiga yana tayoq tiqib, uyiga qaytdi. Har kuni uning yo'li

qisqarib bordi. Beshinchi kuni u tevarak-atrofni suv o'rab olganini ko'rdi. Shu tobda tushundiki, u birinchi marta haqiqiy orolni ko'rdi. Orol juda jozibali edi. Ertalab suv ustidan Ukki uchib keldi va do'sti Kristofer Robin bilan «Omonmisan?» deya so'rashdi.

– Ukki, qara, naqadar ajoyib-a? Men oroldaman!

– Oxirgi paytlarda atmosfera sharoitlari yoqimsizroq, – dedi Ukki.

– Nima?

– Yomg'ir yoqqan, – tushuntirdi Ukki.

– Yoqqan, yoqqan, – dedi Kristofer Robin.

– Suv ancha balandlikka ko'tarilgan.

– Nima?

– Suv haddan ziyod ko'p, – tushuntirdi Ukki.

– Ha, ko'p, – dedi Kristofer Robin.

– Juda yoqimli havo bo'lmoqda...

– Vinni Puxni ko'rmadingmi?

– Ko'rmadim hali.

– Umid qilamanki, uning ahvoli yaxshi, – dedi Kristofer Robin. – Men undan xavotirlanayotgandim. Puchuqvoy ham u bilan birga bo'lsa kerak. Ularning ahvoli yaxshimikan, nima deb o'ylaysan, Ukki?

– Menimcha, shunday. Yaxshilar har da-qiqada...

– Borib ulardan xabar ol, Ukki. Chunki Vinni Puxning aqli ja zo'r ishlaydi-da, biror ahmoqlik qilib qo'yishi turgan gap. Uni shunaqaligi uchun ham yaxshi ko'raman, bilsang agar, Ukki. Tu-shunyapsanmi?

– Tuzuk. Men ketdim va tezda qaytaman, – degancha Ukki uchib ketdi.

Birozdan so'ng u ortiga qaytdi.

- Vinni Pux u yerda emas.
- U yerdamas?
- O'sha yerda bo'lgan. U uyining tashqarisidagi daraxt shoxida to'qqizta xum asali bilan o'tirgandi. Biroq hozir yo'q.
- Voy, Vinni Pux! – qichqirib yubordi Kristofer Robin. – Qayerdasan?
- Men bu yerdaman, – dedi kattalarga xos ovozda uning ortidan.
- Vinni Pux!
- Ular bir-birining quchog'iga talpinishdi.
- Bu yerga qanday kelding, Vinni Pux? – dedi Kristofer Robin yana gapirishga shay turib.
- Qayig'imda, – dedi Vinni Pux mag'rurlanib. – Menda shisha orqali jo'natilgan juda zarur xat bor. Ko'zimga suv kirgani uchun uni o'qiy olmadim, shu bois uni senga olib keldim. O'z qayig'imda.
- Ushbu g'ururli so'z bilan u xatni Kristofer Robin ga topshirdi.
- Axir bu Puchuqvoydan-ku, – dedi Kristofer Robin xatni o'qib bo'lgach.
- Unda Vinni Pux haqida biror narsa yozilmabdimi? – so'radi Ayiq uning yelkasiga qararkan.
- Kristofer Robin xatni baland ovozda o'qidi.
- Eh bu «P»lar Puchuqvoymi? Men esa Vinni Pux, deb o'ylabman.
- Biz darhol uni qutqarishimiz joiz. Ikkingiz birlashtirish deb o'ylabman, Vinni Pux. Ukki, uni qutqara olasanmi?
- Afsuski, yo'q, – dedi Ukki jiddiy o'ylab. – Buning uchun kuchli muskullar kerak.
- Uning yoniga uchib borib, xaloskoring kelmoqda, deya olasanmi? Vinni Pux bilan uni qutqarish

haqida yaxshilab o'ylab, iloji boricha tezroq boramiz. Eh, gap sotishni bas qil-da, tezroq uch, Ukki!

Ukki bir nima deyishni istaganicha uchib ketdi.

– Xo'sh, Vinni Pux, qayig'ing qani? – dedi Kristofer Robin.

– Senga aytishim kerak edi, – dedi Vinni Pux orolning sohili tomon pastga tushisharkan, – u odatiy qayiqqa o'xshamaydi. Ba'zan u qayiq va ba'zida tasodif. Hammasi bir-biriga bog'liq.

– Nima bog'liq?

– Men uning tepasida yoki pastida bo'lishim-ga-da.

– Shunaqa degin! Xo'sh, qayig'ing qayerda?

– Mana! – deb ko'rsatdi Vinni Pux Suzayotgan Ayiqqa ishora qilib.

Kristofer Robin buni kutmagandi. Unga qanchalik qarasa, shunchalik Vinni Pux jasur va aqli Ayiqligi xayoliga keldi. Kristofer Robin bu haqda o'ylagani sayin, Vinni Pux burnini pastga egib, odmigina ko'rinish, o'zini paysalga soldi.

– Lekin bu ikkimizga juda kichiklik qiladi.

– Uchalamizga degin, Puchuqvoy bilan birga.

– Borgan sari kichiklashib bormoqda, eh Vinni Pux, endi nima qilamiz?

Keyin esa Vinni Pux: P.D (Puchuqvoyning do'sti), Q.H (Quyonning hamtovog'i), Q.K (Qutb kashfiyotchisi), X.T (Xo'tikvoyning yupatuvchisi va dumini topuvchisi) dedi. Bundan tashqari Vinni Pux shunaqangi aqli gapni aytgandiki, Kristofer Robin og'zini lang ochganicha unga ko'zlarini baqrayib qaradi. Nahotki bu haqiqatan ham o'sha, u anchadan buyon biladigan hamda yaxshi ko'radigan aqli kalta ayiq bo'lsa, deya hayron qoldi.

– Biz sening soyaboningda ketamiz, – degandi Vinni Pux.

– ?

– Biz sening soyaboningda ketamiz, – takror-ladi yana.

– ??

– Biz sening soyaboningda ketamiz.

– !!!!!!

Kristofer Robin fikr ayni muddaoligini angladi. U soyabonini ochib, suvga to'ncarib qo'ydi. Soya-bon suzardi-yu, lekin chayqalardi ham.

Vinni Pux unga chiqdi. Endigina hammasi joyida demoqchi ediki, aytolmadi, chunki beix-tiyor chanqaganini sezib, Kristofer Robinga otil-di. Keyin ular birgalikda unga o'tirishib, ozgina to'lqinlanishdi.

– Men bu qayiqni Vinni Puxning Aqli, deb atay-man. Vinni Puxning Aqli janub-g'arb tomon ajo-yib tebranib, suzishga shaylandi.

Qayiq Puchuqvoyga yaqin kelganida, uning quvonchini tasavvur qilgin-a!

Bir yil o'tib esa, u mammuniyat bilan o'ylaydi: vahimali suv bosishi-yu, juda katta xavf ostida qolganini, eng yomoni, oxirgi yarim soat qamalib turgani bo'ladi. Ukki yaqindagina uchib kelgan ekan. U daraxt shoxiga qo'nib, chumoli baliqchi qushning tuxumini noto'g'ri qo'ygani haqidagi uzundan-uzun hikoyani so'zlab berdi. Hikoya davom etaverdi-etaverdi, xuddi shu jumlalarga o'xshab. Derazadan umidsizlarcha tinglab turgan Puchuqvoy esa, xolis va xotirjamgina uxbab qoldi. Barmoqlarida osilib turganiga qaramay, deraza-dan suv tomon sirg'alib ketdi. O'sha onda baxti-ga kutilmaganda Ukkining xayqirig'i eshitildi.

Chunki u hikoyaning bo'lagi edi-da, xolasi aytganiday, Puchuqvoyni uyg'otib, o'zini himoyalash uchun orqasiga bir turtib qo'ygach «Naqadar qiziqarli-ya?» deyishiga imkon berdi. Xo'sh, keyin uning shodligini tasavvur qilaver, u shinamgina qayiqni ko'rib qoldi. Vinni Puxning Aqli (Kapitan K.Robin, yordamchi V.Pux) daryodan uni qutqarishga kelmoqda.

Hikoya mana shunday yakun toparkan, oxirgi jumlanı aytarkanman, men ham juda charchadim. Menimcha, shu yerda to'xtatganim ma'qul.

O'NINCHI BOB

KRISTOFER ROBIN VINNI PUXGA ZIYOFAT UYUSHTIRGANI HAQIDA VA BIZ XAYRLASHAMIZ

Mayin shamol do'lana isini yetaklab, o'rmonga qaytib kelgan kunlarning bida, o'rmondagi barcha ariqlarning yana bag'ri to'lib, shodlana jaranglar, kichkina ko'lmaklarni ko'rgan paytlarini va qilgan katta ishlarini orzulab yotardilar. Issiq va tinch o'rmonda kakku ovozi boricha ehtiyotkorona sayrar hamda atrofga nazar solib, uni biror zog' tinglayaptimiyo'qmi, bilib olardi. O'rmon kaptarlari bir-birlariga erinchoq sharoitdan nola chekardilar, buni boshqa sherigidan ko'rishardi, lekin bu sabab bo'lolmasdi; mana shunday kunlarda Kristofer Robin o'ziga xos usulda hushtak chaldi, Ukki esa katta o'rmondan nima istalganini bilish uchun uchib keldi.

– Ukki, men ziyofat uyushtirmoqchiman, – dedi Kristofer Robin ishonch bilan.

– Sen, sen-a? – dedi Ukki.

– Bu o'zgacha ziyofat bo'ladi. Chunki, chunki Vinni Pux shunday ishni bajardiki, u Puchuqvoyni suv bosishidan qutqardi.

– Ha, shunaqa degin.

– Xuddi shunday. Vinni Pux va boshqalarga xushxabarni tezroq yetkazasanmi? Negaki ziyo-fatni ertaga o'tkazmoqchiman.

– Voy, bo'ladi, – dedi Ukki hamon qo'ldan kelgancha yordamga shay turib.

– Xo'sh, borib ularga ayt, Ukki.

Ukki donolarga xos bir nimani o'yladi-da, ammo hech nima deyolmadi, keyin boshqalarni chaqirgani uchib ketdi. Xabarni birinchi bo'lib Vinni Puxga aytdi.

– Vinni Pux, Kristofer Robin ziyofat bermoq-chi.

– Zo'r-ku! – dedi Vinni Pux va Ukki yana undan nimadir deyishini kutayotganini ko'rib, – ziyofatda anavi pushti shakar kukunli tort ham bo'ladimi? – deb so'radi.

Ukki shakar kukunli kichkina pushti rang tort haqida so'zlashni o'ziga ep bilmadi va Vinni Puxga Kristofer Robinning aytgan so'zlarini lo'nda qilib ayta qoldi, so'ngra Xo'tikvoyning yoniga uchib ketdi.

– Men uchun ziyofat? – o'yladi Vinni Pux. – Qadrimni qarang-a!

Barcha hayvonlar Vinni Pux uchun ziyofat berilayotganini bilib, hayratga tushdilar. Kristofer Robin ularga Suzayotgan Ayiq hamda Ayiqning Aqlini, u kashf etgan barcha ajoyib qayiqlarni, ularda suzganini aytib bergandi. Bordi-yu barcha buni unutib yuborgan bo'lsa chakki-da, deya o'yladi Vinni Pux. Va hech kim ziyofat nima uchunligini bilmaydi; bu haqda qanchalik o'ylasa, bazm-u jamshid uning ongida shunchalik chalkashib boradi, xuddi barcha narsa xato bo'lguvchi tushday.

Keyin u tushi qo'shiq bo'lib aytildmaguncha kuylay boshladи:

VINNI PUX QO‘SHIG‘I

Vinni Puxga katta rahmat!

(*Kim uchun?*)

Vinni Pux uchun

(*U nima qildi?*)

Bilasiz deb o‘ylabman,

U do‘smini cho‘kishdan qutqardi!

Vinni Puxga katta rahmat!

(*Kimga?*)

Ayiqlqa.

U suzishni bilmaydi,

Lekin uni qutqardi!

(*U kimni qutqardi?*)

Ey, eshit, oshna!

Men Vinni Pux haqida gapiryapman.

(*Kim haqida?*)

Vinni Pux!

(*Kechirasani, esimdan chiqaribman*)

Xo‘s, Vinni Pux aqli raso ayiq edi.

(*Yana bir takrorla!*)

Aqli raso...

Nima uchun?

Demak, u ko‘p yerdi,

Va uning suzishi haqida hech narsa bilmayman,

Lekin u suzishga moyil,

Misli qayiqday

(*Misli nimaday?*)

Xuddi xumday...

Vinni Puxga katta rahmat!

Umid qilamanki, u biz bilan yillar va yillar davomida bo‘ladi,

Sog‘lom hamda aqlli va boy bo‘lib ulg‘ayadi!

Vinni Puxga katta rahmat!

(*Kim uchun?*)

Vinni Puxga...

Vinni Puxga katta rahmat!

(Kimga?)

Vinni Puxga...

Vinni Puxga katta rahmat!

(Kimdир менга айта qolsin – UN NIMA QILDI O'ZI?)

Bu qo'shiq uning ichida yangrayotganida Ukki Xo'tikvoyga xabarni yetkazdi.

– Xo'tikvoy, Kristofer Robin ziyofat beryapti, – dedi Ukki.

– Juda qiziq, – dedi Xo'tikvoy. – Menimcha, ular meni quvontiradigan ajabtovur narsa jo'natishgan bo'lsa kerak. Mehribon va serfikr. Arzimaydi.

– Bu senga taklifnoma.

– U nimaga o'xshaydi?

– Aytyapman-ku, taklifnoma!

– Eshityapman. Uni kim tashladи?

– Bu yeydigan narsa emas, u seni ziyofatga taklif qilyapti. Ertaga.

Xo'tikvoy asta boshini siltadi.

– Puchuqvoyni nazarda tutding shekilli, qu-loqsiz bola. Bu Puchuqvoyga. Unga ham yetka-zaman.

– Yo'q, yo'q! – dedi Ukki asabiylasha, – bu senga!

– Aniqmi?

– Albatta, ishonchim komil. Kristofer Robin ularning hammasiga aytgin degan axir!

– Xo'tikvoydan tashqari barchaga-ya?

– Hammaga, – dedi Ukki qovog'i tundlashib.

– Eh mayli! Agar yomg'ir yog'ib qolsa, meni ayblamang.

Biroq yomg'ir yog'madi. Kristofer Robinda uzun yog'och bo'lagidan yasalgan stol bor edi va ular

barchasi ana o'shaning atrofiga o'tirishdi. Kristofer Robin to'rga chiqdi, Vinni Pux uning yoniga, bir tarafga Ukki, Xo'tikvoy hamda Puchuqvoy o'tirdi. Boshqa tarafda Quyon, Ru hamda Kenguru joylashib olgandi. O't-o'lan ustida Quyonning barcha do'stlari, qarindoshlari yoyilib, kimdir ularga og'iz juftlashini yoki biror narsa tashlashini yoki ularning soatni so'rashishini umid bilan kutishardi.

Bu Ru ishtirok etayotgan ilk bazm bo'lib, u juda hayajonda edi. Ular stulga o'tirishi bilanoq Ru chiyillab dedi:

- Salom, Vinni Pux!
- Qalaysan, Ru! – so'rashdi Vinni Pux.

Ru o'tirgan joyida biroz muddat tepaga pastga sakrab yana:

- Salom, Puchuqvoy! – deya chiyilladi.

Puchuqvoy juda bandligidan panjasini unga qimirlatdi.

- Salom, Xo'tikvoy! – dedi Ru.

Xo'tik xafanamo yuzi bilan boshini qimirlatdi. – Hali yomg'ir yog'adi, ko'ryapsizmi, yog'mayaptimi? – dedi u.

Ru yomg'ir yog'mayotganini tekshirganday alangladi, keyin esa:

- Salom, Ukki! – dedi.

Ukki ham:

– Salom, mening jajji do'stim, – deya so'rashdi xushmuomala bo'lib. So'ngra Ukki Kristofer Robin tanimagan bir do'sti bilan kutilmagan voqeа sodir bo'lgani haqida Kristofer Robinga aytgani ketdi. Kenguru Ruga dedi: «Oldin sutingni ichib, keyin so'yla, azizam». Shunday qilib Ru sutini ichayotib, bir vaqtning o'zida gapirishni ham bopplashini

ko'rsatmoqni istadi. Natijada shalabbo bo'lganidan so'ng orqasiga kaltak tushdi-da, onasi uni anchagacha quritdi.

Barcha sozgina tamaddi qilgach, Kristofer Robin qoshig'ini stolga urdi. Mehmonlar og'ziga tolqon solib oldi, faqat Rudan tashqari, chunki uning hiqichog'i endigina tin olgandi va o'zini shunday tutdiki, go'yo Shalpanqulqoqning qarindoshlari hiqilladi, deb o'yładi boshqalar.

– Ushbu ziyofat, – derkan Kristofer Robin, – kimningdir amalga oshirgan ishi uchun – biz barchamiz u kimligini bilamiz. Men unga sovg'a bermoqchiman, mana. – Kristofer Robin jinday o'ylanib qolgach, – Iye qani u? – deb pichirladi.

U sovg'ani qidirayotganida, Xo'tikvoy hayron qoldiradigan darajada yo'talib, shunday dedi:

– Do'stlar, shuni aytmoqchiydimiki, ziyofatga kelganingiz men uchun naqadar baxt-a! Mening qo'lidan hech ish kelmadı. Sizlarnikidan ham, faqat Quyon, Ukki va Kengurudan tashqari... ular bir ishni bajardi. Voy, Vinni Pux ham. Bahoni, albatta, Puchuqvoy va Ruba qo'ymadim, axir ular juda kichkina. Har biringiz shunday qilgan bo'lardingiz. Men ham hozirgina shu qarorga keldim. Yo'q, unday deyolmayman, ishonch bilan aytishim lozim, Kristofer Robinning izlash g'oysasi bilan sodir bo'ldi... – dedi old tuyog'ini og'ziga qo'yib, baland ovozda shivirladi: – Stol tagini qara, bu qo'lidan kelgan yordam, o'ylashimcha, hammamiz birlashib qidirishimiz kerak. Menimcha, barchamiz...

- X-i-iq! – deb yubordi Ru to'satdan.
- Ru, azizim, – dedi Kenguru ginalab.
- Bu menmidim, – dedi Ru jinday hayratlanib.

– Xo‘tikvoy nima deyapti? – so‘radi Puchuqvoy Vinni Puxdan.

– Bilmadim, – javob berdi Vinni Pux xafaroq bo‘lib.

– Men esa bu sening ziyoфating, deb o‘ylabman.

– Ziyofat bir odamnnig sharafiga desam, una-qamas-ov.

– Xo‘tikvoynikidan ko‘ra sening bazmingda qatnashganim yaxshiroq, – dedi Puchuqvoy.

– Nima ham derdim, – ma‘qulladi Vinni Pux.

– X-i-i-iq, – hiqichog‘i tutdi yana Runing.

– Aytmoqchiydimki, – dedi Xo‘tikvoy baland ovozda va qat’iy. – Aytmoqchiydimki, birovlarning gapini bo‘layotganimda, shunday hisni tuyamanki...

– Mana u! – qichqirdi Kristofer Robin hayajon-lanib. – Uni tentak qari Vinni Puxga uzatvor. Vinni Pux, bu senga.

– Vinni Puxga? – dedi Xo‘tikvoy.

– Bo‘imasam-chi. Dunyodagi eng yaxshi ayiqqa.

– Bilishim kerak edi, – dedi Xo‘tikvoy. – Endi hech kim shikoyat qilmaydi. Do‘stingimga ko‘z tegmasin. Kechagina qulog‘imga chalinganday bo‘ldi. Tunov kuni yo o‘tgan hafta, undan oldingi haftamidi, Quyon menga bir urib, «Obbo, tinim yo‘q, hamisha nimadir sodir etiladi», dedi.

Hech kim Xo‘tikvoyni tinglamasdi, hamma Vinni Puxga «Och uni, Vinni Pux», «Nima ekan-u o‘zi?» «Yo‘g‘-ye, bu ishni qilolmaysan», degan yordamchi xitoblar aytish bilan ovora. Shubhasiz, Vinni Pux sovg‘ani iloji boricha tezroq ochishga intildi, lekin ipni kesmay turib ochmoqchi bo‘lardi, chunki sen bilmaysan-da, ozgina ip ham asqatib qolishi tabiiy. Axiyri sovg‘a ochildi.

Vinni Pux sovg'a nima ekanligini ko'rganida, xursandligidan hushini yo'qtayozdi. Bu maxsus qalamdon edi. Qalamlarida yozuvi ham bor ekan. Unda «A» Ayiq, «YOA» Yordamchi Ayiq va «PA» Pahlavon Ayiq deb yozilgan qalamlar ni ko'rdi. Shuningdek, qalam uchini o'tkirlaydigan pichoqcha, biror narsani noto'g'ri yozib qo'yganingda o'chiradigan o'chirgich, harflarni yozayotganda asqatadigan hoshiyalarni chizadigan chizg'ich va har bir narsaning uzunligini bilging kelganda ishlata digan chizg'ich ham bor edi. Havorang qalamlar, qizil qalamlar hamda yashil qalamlar havorang, qizil va yashil rangdagi maxsus narsalarni yozish uchun kerak. Mana shu barcha narsalar o'zining kichkina idishlarida bo'lib, maxsus holatida tugmachani bosganda yopildi. Bularning barchasi Vinni Puxga edi.

– Voy! – dedi Vinni Pux.

– Voy, Vinni Pux! – deb yubordi Xo'tikvoydan tashqari barcha.

– Rahmat, – deb quvonib ketdi Vinni Pux.

Biroq Xo'tikvoy o'ziga o'zi:

– Bu yozuvli mayda-chuyda ish. Qalamlar va bema'ni narsalar. Mendan so'rasangiz, almisog'dan qolgan. Bir to'p jinni-sang'i. Tuzukroq narsa yo'q, – deya sayray ketdi.

Kechroq hamma Kristofer Robinga «Xayr va rahmat» aytdi. Vinni Pux hamda Puchuqvoy birgalikda uylariga oydin kechada o'ychan odimlasharkan, uzoq vaqt sukut saqlashdi.

– Vinni Pux, ertalab nechchida turasan? Turiboq o'zingga qanday so'zni aytasan? – deb qoldi oradagi jimlikni buzib Puchuqvoy.

- Nonushtaga nima yesam ekan, deyman, o'zing-chi, Puchuqvoy? – dedi Vinni Pux.
 - Men esa bugun qanday ajoyib narsa sodir bo'larkan-a, deyman.
 - Vinni Pux boshini o'ylanibroq chayqab qo'ydi.
 - Bu bir xil narsa, – dedi Vinni Pux.
 - Keyin nima bo'ladi? – so'radi Kristofer Robin.
 - Qachon?
 - Ertasi kuni-da?
 - Bilmadim.
 - O'ylab ko'rib, Vinni Pux haqida nimadir deya olasizmi?
 - Agar u juda xohlasa.
 - Vinni Pux istaydi, – dedi Kristofer Robin.
- Kristofer Robin chuqur xo'rsinib, ayig'ini oyog'idan ushlab ko'tardi va izidan Vinni Puxi-



ni ergashtirib eshik tomon bordi. Eshik oldida o‘girilib, «Kel buyoqqa, cho‘milishimni ko‘rasan», dedi.

– Men borishim mumkin, – dedim men.
– Mening qalamdonimdan Vinni Puxniki zo‘rmidi?

– Ular bir xil edi, – javob berdim men.
U boshini qimirlatdi... Oradan daqiqa o‘tgach, Vinni Pux uning ortidan bup-bup-buplab tepaga chiqib ketayotganini ko‘rdim.

MUNDARIJA

Muqaddima	3
BIRINCHI BOB	
Vinni Pux va asalarilar haqida	5
IKKINCHI BOB	
Vinni Pux mehmonga borib, kovakka tiqilib qolgani haqida.....	16
UCHINCHI BOB	
Vinni Pux va Puchuqvoy ovga chiqib, Olabo‘jini tutmoqchi bo‘lgani haqida	24
TO‘RTINCHI BOB	
Xo‘tikvoy dumini yo‘qotib qo‘ygani, Vinni Pux uni topib bergani haqida	30
BESHINCHI BOB	
Puchuqvoyning Filcha bilan uchrashgani haqida.....	37
OLTINCHI BOB	
Xo‘tikvoyning tug‘ilgan kuni va u ikkita sovg‘a olgani haqida	48
YETTINCHI BOB	
Kenguru va bolakay Runing o‘rmonga kelib qolgani hamda Puchuqvoyning cho‘milgani haqida	61
SAKKIZINCHI BOB	
Kristofer Robinning Shimoliy qutb «ikspititsiyasi»ga boshchilik qilgani haqida	75

TO'QQIZINCHI BOB	
Puchuqvoyning uyini	
suv bosib qolgani haqida.....	89
O'NINCHI BOB	
Kristofer Robin Vinni Puxga ziyofat	
uyushtirgani haqida va biz	
xayrashamiz.....	100

Adabiy-badiiy nashr

ALAN ALEKSANDR MILN

VINNI PUX VA UNING SARGUZASHTLARI

(*Birinchi qism*)

Muharrir
Ma'mura QUTLIYEVA

Badiiy muharrir
Uyg'un SOLIHOV

Rassomlar
Ruxsora RUSTAMBEKOVA,
Nasiba RAHIMOVA

Musahhih
Madina MAHMUDOVA

Sahifalovchi
Sunnat MUSAMEDOV

Texnik muharrir
Surayyo AHMEDOVA

Litsenziya raqami: AI № 252, 2014-yil 2-oktabrda berilgan.

Bosishga 2016-yil 26.01.da ruxsat etildi.
Bichimi 84x108 1\32.

Bosma tobogi 7,0. Shartli bosma tobogi 11,76.
Garnitura «Bookman Old Style». Ofset qog'ozsi.
Adadi 5000 nusxa. Buyurtma № 39.
Bahosi kelishilgan narxda.

«Yangi asr avlodi» NMMda tayyorlandi va chop etildi.
100113. Toshkent, Chilonzor-8, Qatortol ko'chasi, 60.

Murojaat uchun telefonlar:

Nashr bo'limi – 147-00-14; 129-09-72;
Marketing bo'limi – 128-78-43; 397-10-87; faks – 273-00-14;
e-mail: yangiasravlod@mail.ru